

O‘zbekiston Respublikasi
Sog‘liqni saqlash vaziri
2025 yil "23"iyundagi
№180 son buyrug‘iga
Ilova

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN ONKOLOGIYA VA
RADIOLOGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI**

**"A'ZODAN TASHQARI QORIN PARDA ORTI
O‘SMALARI" NOZOLOGIYASI BO‘YICHA MILLIY
KLINIK PROTOKOLI**

TOSHKENT – 2025

"TASDIQLAYMAN"
Respublika ixtisoslashtirilgan
Onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy
tibbiyot markazi direktori
M. N. Tillyashayxov



2025 yil

"A'ZODAN TASHQARI QORIN PARDA ORTI
O'SMALARI" NOZOLOGIYASI BO'YICHA MILLIY
KLINIK PROTOKOL

TOSHKENT – 2025

Mundarija

"АЪЗОДАН ТАШҚАРИ ҚОРИН ПАРДА ОРТИ ЎСМАЛАРИ" НОЗОЛОГИЯСИ БЎЙИЧА ДИАГНОСТИКА ВА ДАВОЛАШ МИЛЛИЙ КЛИНИК ПРОТОКОЛИ	5
«АЪЗОДАН ТАШҚАРИ ҚОРИН ПАРДА ОРТИ ЎСМАЛАРИ» НОЗОЛОГИЯСИ БЎЙИЧА ТИББИЙ АРАЛАШУВЛАР МИЛЛИЙ КЛИНИК ПРОТОКОЛЛАРИ	48
«АЪЗОДАН ТАШҚАРИ ҚОРИН ПАРДА ОРТИ ЎСМАЛАРИ» НОЗОЛОГИЯСИ БЎЙИЧА ПРОФИЛАКТИКА ВА РЕАБИЛИТАЦИЯ МИЛЛИЙ КЛИНИК ПРОТОКОЛЛАРИ.....	63
«АЪЗОДАН ТАШҚАРИ ҚОРИН ПАРДА ОРТИ ЎСМАЛАРИ» НОЗОЛОГИЯСИ БЎЙИЧА ПАЛЛИАТИВ ТИББИЙ ЁРДАМ МИЛЛИЙ КЛИНИК ПРОТОКОЛЛАРИ.....	76

**"A'ZODAN TASHQARI QORIN PARDA
ORTI O'SMALARI" NOZOLOGIYASI
BO'YICHA DIAGNOSTIKA VA DAVOLASH
MILLIY KLINIK PROTOKOLI**

TOSHKENT – 2025

1. Kirish qismi

- Qisqacha annotasiya. C48 - a'zodan tashqari qorin parda orti o'smalari bo'yicha ushbu milliy klinik protokol dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillariga asoslangan zamonaviy ilmiy ma'lumotlarga muvofiq a'zodan tashqari qorin parda orti o'smalarini nazorat qilish va oldini olishga qaratilgan o'z vaqtida va sifatli diagnostika, terapevtik taktika, palliativ yordamni ta'minlash uchun yagona konsepsiyani shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan.

A'zodan tashqari qorin parda orti o'smalari nozologiyasi bo'yicha ushbu milliy klinik protokol O'zbekiston Respublikasi tuman, viloyat va respublika sog'liqni saqlash muassasalarining ambulator va stasionar sharoitida tibbiy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan.

- - XKT kod (lar) i:

KXT-10:	
Kodi	Nomlanishi
C48	– A'zodan tashqari qorin parda orti o'smalari
C48.0	– Qorin parda ortistranstva
C48.1	– Qorin pardaning aniqlashtirilgan qismlari
C48.2	– Qorin pardaning aniqlashtirilmagan qismlari
C48.8	– Yuqorida keltirilgan bitta yoki bir nechta lokalizasichdan tashqari chiqqan qorin parda orti soha va qorin pardaning zararlanishi
Yuklab olish (XKT-10 dan havola): https://mkb-10.com/index.php?pid=1262	
KXT-11:	
Kod i	Nomlanishi
2C50-2C5Z	Xavfli o'smalar: qorin parda orti, qorin parda yoki charvida
2C50	Qorin parda orti va qorin pardadagi xavfli o'smalar
2C50.0	Qorin parda ortidagi kistoz, musinoz yoki seroz karsinoma
2C50.Y	Qorin parda orti va qorin pardadagi boshqa aniqlangan xavfli o'smalar
2C50.Z	Aniqlanmagan qorin parda orti va qorin pardadagi xavfli o'smalar
2C51	Qorin pardadagi xavfli o'smalar
2C51.0	Qorin parda adenokarsinomalari
2C51.1	Qorin pardadagi kistoz, musinoz yoki seroz karsinoma
2C51.Y	Qorin pardadagi boshqa aniqlangan xavfli o'smalar

2C51.Z	Aniqlanmagan qorin pardadagi xavfli o'smalar
2C52	Charvidagi xavfli o'smalar
2C52.0	Charvidagi kistoz, musinoz yoki seroz karsinoma
2B5F.10	Charvi miosarkomasi
2C52.Y	Charvidagi boshqa aniqlangan xavfli o'smalar
2C52.Z	Aniqlanmagan charvidagi xavfli o'smalar
2C53	Bir yoki bir nechta lokalizasiya chegarasidan tashqari tarqalgan qorin parda orti, qorin parda yoki charvidagi xavfli o'smalar
2C53.0	Bir yoki bir nechta lokalizasiya chegarasidan tashqari tarqalgan qorin parda orti, qorin parda yoki charvi adenokarsinomasi
2C53.Y	Bir yoki bir nechta lokalizasiya chegarasidan tashqari tarqalgan qorin parda orti, qorin parda yoki charvidagi boshqa aniqlangan xavfli o'sma
2C53.Z	Bir yoki bir nechta lokalizasiya chegarasidan tashqari tarqalgan qorin parda orti, qorin parda yoki charvidagi aniqlanmagan xavfli o'sma
2C5Y	Qorin parda orti, qorin parda yoki charvidagi boshqa aniqlangan xavfli o'smalar
2C5Z	Aniqlanmagan qorin parda orti, qorin parda yoki charvidagi xavfli o'smalar
2F73	Qorin parda ortidagi noma'lum tabiatli o'smalar
2F74	Qorin pardadagi noma'lum tabiatli o'smalar
2D90	Qorin parda ortidagi xavfli o'smaning metastazi
2D91	Qorin pardaga xavfli o'smaning metastazi, xavfli o'smaning boshqa joylarga metastazi
2B59.1	Qorin parda yoki qorin parda orti liposarkomasi
2B58.0	Qorin parda yoki qorin parda orti leyomiosarkomasi
2B5F.1	Boshqa rubrikalarga kiritilmagan qorin parda va qorin parda orti sarkomasi
2B5F.10	Charvi miosarkomasi
2B5F.1Y	Boshqa aniqlangan, boshqa rubrikalarga kiritilmagan qorin parda va qorin parda orti sarkomasi
2B5F.1Z	Aniqlanmagan, boshqa rubrikalarga kiritilmagan qorin parda va qorin parda orti sarkomasi
Yuklab olish (XKT-11 dan havola): https://icd.who.int/browse/2025-01/mms/ru#1630407678	

- Bayonnomani ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish sanasi:

2025-2028 yil.

- **Milliy klinik protokol va standartlarni ishlab chiqish uchun mas'ul bo'lgan tashkilot:** Respublika ixtisoslashtirilgan Onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

- MILLIY KLINIK PROTOKOL VA STANDARTLARNI ISHLAB CHIQUISHDA XISSA QO'SHGANLAR:

- Multidissiplinar ishchi guruh a'zolari:

1. Tillyashayxov Mirzagaleb Nigmatovich – t.f.d., professor, RIOvaRIATM direktori;
2. Yusupbekov Abrorbek Axmedjanovich – t.f.d., professor, RIOvaRIATM direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari;
3. Juraev Mirjalol Dexkanovich – t.f.d., professor, RIOvaRIATM abdominal bo'limi rahbari;
4. Ibragimov Shavkat Narziqulovich – t.f.d., RIOvaRIATM radiologiya bo'limi ilmiy rahbari;
5. Nishanov Daniyar Anarbaevich – t.f.d., RIOvaRIATM direktorining davolash ishlari bo'yicha o'rinbosari;
6. Kamishov Sergey Viktorovich – t.f.d., RIOvaRIATM kimyo terapiya bo'limi ilmiy rahbari;
7. Raximov Nodir Maxamatovich – t.f.d., Samarqand shahar hududlar aro Xospisi direktori;
8. Ismailova Munajat Hayotovna – k.m.n., Toshkent Tibbiyot akademiyasi onkologiya kafedrasida mudiri.
9. Xasanov Akbar Ibragimovich – t.f.d., RIOvaRIATM bosh bo'yin o'smalari bo'limi ilmiy rahbari;
10. Abdulkarimov Xurshid Ganjievich – t.f.d. RIOvaRIATM tayanch-harakat a'zolari o'smalari bo'limi ilmiy rahbari;
11. Axmedov Odiljon Muxamedjanovich – t.f.n., RIOvaRIATM endovizual jarrohlik bo'limi mudiri;

- Multidissiplinar mualliflar ro'yxati, qo'shimcha hammualliflar jamoasi:

1. Yakubov Yusufdjon Kenjaevich – t.f.n., Respublika ixtisoslashtirilgan Onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (RIOvaRIATM) gepatopankreatobiliar soha o'smalari jarrohligi bo'limi ilmiy rahbari;

2. Egamberdiev Dilshod Maxmudovich – t.f.n., RIOvaRIATM
gepatopankreatobiliar soha o‘smalari jarrohligi bo‘limi etakchi xodimi;
3. Maksimkulov Djuma Muminovich – t.f.n., RIOvaRIATM gepatopankreatobiliar
soha o‘smalari jarrohligi bo‘limi etakchi xodimi;
4. Tuyev Xusniddin Nasriddinovich –RIOvaRIATM gepatopankreatobiliar soha
o‘smalari jarrohligi bo‘limi etakchi xodimi;
5. Soipov Bobur Baxtiyorovich –RIOvaRIATM gepatopankreatobiliar soha
o‘smalari jarrohligi bo‘limi mudiri;
6. Raximov Sanatjon Sobirovich –RIOvaRIATM gepatopankreatobiliar soha
o‘smalari jarrohligi bo‘limi etakchi xodimi;
7. Xatamov Akbar Muxametovich –RIOvaRIATM gepatopankreatobiliar soha
o‘smalari jarrohligi bo‘limi etakchi xodimi.

- Taqrizchilar:

Respublikadan:

Akbarov Mirshavkat Mirolimovich – t.f.d., professor, V.V.Voxidov nomidagi RI xirurgiya IATMning 1-son gepatobiliar jarrohlik va jigar transplantasiyasi bo‘limi rahbari.

Horijdan:

Trifanov V.S. — Tibbiyot fanlari doktori, dosent, P.A. Gersen nomidagi MITOIning abdominal onkoxirurgiya markazi mudiri, Rossiya Sog‘liqni saqlash vazirligi FDBM «Radiologiya ITTM» filiali;

- Multidissiplinar ishchi guruh yig‘ilishida MILLIY KLINIK PROTOKOLni loyihasini muhokamasi bayonnomasidan ko‘chirmaning raqami va sanasi: ishchi guruhning 5-sonli yig‘ilishi 2025 yil 22 mayda bo‘lib o‘tgan.

- Onkologiya tibbiyot yo‘nalishlari kengashlari yig‘ilishida AGREE usulida muhokamadan o‘tkazilganligi xulosasi va yig‘ilish bayonnomasidan ko‘chirma: Ilmiy Kengashning 5-sonli yig‘ilishi 2025 yil 25 mayda bo‘lib o‘tgan.

Milliy klinik protokol va standartlarni texnik baholash bo‘yicha ekspert xulosasi va taxrirlash:

Respublikadan:

Islamov Xurshid Jamshidovich – t.f.n., Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi koloproktologiya bo‘limi ilmiy rahbari;

Horijdan:

Kim Sergey – Seul Milliy universitetining Bundang hospitali tashqi aloqalar departamenti professori.

Milliy klinik protokol va standartlarni Sog‘liqni saqlash vazirligining Ekspert guruhi mutaxassislari tomonidan o‘tkazilgan baholash bo‘yicha ekspert xulosasi:

Mazkur klinik protokol va standartlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazir o‘rinbosari Basitxanova E.E, Tibbiy sug‘urta boshqarmasi boshlig‘i Sh. Almardanov, klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi boshlig‘i Sh.R. Nurimova boshchiligida, Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi bosh mutaxassisi G.Djumayeva, yetakchi mutaxassisi N.Raximova tomonidan tashkiliy va uslubiy ko‘magi asosida ishlab chiqilgan.

Sog‘liqni saqlash vazirligi qoshidagi Muvofiqlashtirilgan Kengash yig‘ilish bayonnomasidan ko‘chirma (sana, №raqam).

QISQARTMALAR RO‘YXATI:

ALT	– alaninaminotransferaza
AST	– aspartataminotransferaza
AFP	– alfa-fetoprotein
v/i	– vena ichiga
m/o	– mushak orasiga
ATQPOS	– A'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalari
ED	– birlik
MIY	– me'da – ichak yo‘li
XO‘	– xavfli o‘sma
IFA	– immunoferment analiz
KT	– kompyuter tomografiya
NT	– nur terapiya
XNM	– xalqaro normallashtirilgan munosabat
MRT	– magnit-rezonans tomografiya
NEO‘	– Neyroendokrin o‘smalar
QUT	– qon umumiy tahlili

PUT	– peshob umumiy tahlili
t/o	– teri ostiga
PTV	– Protrombin vaqti
PTI	– protrombin indeksi
PET	– pozitron –emission tomografiya
REA	– Rak embrional antigeni
YuQT	– yurak qon-tomir tizimi
YuTS	– Yumshoq to‘qima sarkomalari
UZDG	– ultratovush dopplerografiya
UTT	– ultratovush tekshiruvi
SGV	– surunkali gepatit B
SGS	– surunkali gepatit C
SGD	– surunkali gepatit D
EGDS	– ezofagogastroduodenoskopiya
EKG	– elektrokardiogramma
ExoKG	– exokardiografiya
per os	– peroral
CTV	– clinical tumor volume, o‘smaning klinik tarqalish sohasi
ECOG	– Eastern Cooperative Oncology Group, Sharqiy birlashgan onkologik guruh
GTV	– gross tumor volume, aniqlanadigan o‘sma hajmi
RECIST	– Response evaluation criteria in solid tumours, Solid o‘smalarni terapiyaga javobini baholash mezonlari
TNM	– Tumor Nodus Metastasis – xavfli o‘smalar bosqichlarining xalqaro tasnifi

- Mazkur nozologiya bo‘yicha milliy protokolning foydalanuvchilari:

- Shifokor-onkologlar;
- Abdominal onkologlar;
- Shifokor- kattalar jarrohlari;
- Kimyo terapevtlar;
- Radioterapevtlar;

- Umumiy amaliyot shifokorlari;
 - Sogʻliqni saqlash tashkilotchilari;
 - Shifokor-terapevtlar;
 - OTM talabalari, magistrilar, ordinator va aspirantlar.
- **Mazkur nozologiya boʻyicha bemorlarning toifasi:** (18 yoshdan) kattalar.
 - **Dalillarga asoslangan tibbiyotning, dalillari darajasi shkalasi:**

**1-jadval. Dalillarning ishonchlilik darajalarini (DID) baholash oʻlchovi
diagnostika usullari (diagnostik aralashuvlar) uchun**

DID	Batavsil
1	Malumot nazorati ostida oʻtkaziladigan tadqiqotlarning tizimli tekshiruvi yoki randomizasiyalangan klinik tadqiqotlarning metatahlil yordamidagi tizimli tekshiruvi
2	Ma'lumotlarning usuli yoki alohida tasodifiy klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi alohida tadqiqotlar muntazam ravishda koʻrib chiqish, metatahlil yordamida tasodifiy klinik tadqiqotlar bundan mustasno
3	Ma'lumotnoma usuli bilan ketma-ket nazoratsiz tadqiqotlar yoki oʻrganilayotgan usuldan mustaqil boʻlmagan tadqiqotlar yoki tasodifiy boʻlmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan kogort tadqiqotlar
4	Taqqoslab boʻlmaydigan tadqiqotlar, klinik holatning tavsifi.
5	Faqat harakat mexanizmi yoki ekspertlarning fikrini asoslash mavjud.

2-jadval. Profilaktika, davolash va rehabilitatsiya (profilaktika, davolanish, rehabilitatsiya aralashuvlari) uchun dalillarga ishonch darajasini baholash oʻlchovi

DID	Batavsil
1	Metatahlil yordamida tasodifiy klinik tadqiqotlarni muntazam koʻrib chiqish.
2	Alohida tasodifiy klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarning tizimli sharhlari, metatahlil yordamida tasodifiy klinik tadqiqotlar bundan mustasno.
3	Tasodifiy boʻlmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan kogort tadqiqotlar
4	Taqqoslab boʻlmaydigan tadqiqotlar, klinik hodisa yoki qator hodisalar tavsifi, «hodisa-kontrol» tadqiqotlari.
5	Aralashuvning harakat mexanizmi uchun faqat asos mavjudligi (klinikadan oldingi tadqiqotlar) yoki ekspert xulosasi.

3-jadval. Profilaktika, tashxis, davolash va reabilitatsiya usullari bo'yicha tavsiyalarning ishontirish darajasini baholash o'lchovi (profilaktika, davolanish, reabilitatsiya aralashuvlari)

DID	Batavsil
A	Kuchli tavsiya (ko'rib chiqilgan barcha samaradorlik mezonlar (natijalar) muhim ahamiyatga ega, barcha tadqiqotlar yuqori yoki qoniqarli uslubiy sifatga ega, ularning qiziqish natijalari bo'yicha xulosalari kelishilgan).
B	Shartli tavsiya (ko'rib chiqilgan barcha samaradorlik choralari (natijalari) muhim emas, hamma tadqiqotlar ham yuqori yoki qoniqarli uslubiy sifatga ega emas va / yoki qiziqish natijalari bo'yicha ularning xulosalari kelishilmagan).
C	Zaif tavsiya (tegishli sifat dalillarining yo'qligi, ko'rib chiqilgan barcha samaradorlik mezonlari (natijalari) muhim emas, barcha tadqiqotlar past uslubiy sifatga ega va qiziqish natijalari bo'yicha ularning xulosalari kelishilmagan).

2. Asosiy qism.

- Kirish

A'zodan tashqari qorin parda orti o'smalari – mezodermal, neyrogen va embriogen kelib chiqishiga ega bo'lgan, qorin parda orti sohasida joylashgan xavfli va xavfsiz o'smalar guruhidir (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/34303806/>).

- **Nozologiyaning umumiy tavsifi** (foydalanilgan manba'ga havola: <https://www.esmo.org/guidelines>)

A'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalari (AQQPOS) – turli xil biriktiruvchi to'qimalardan rivojlanuvchi va qorin parda orti sohasida joylashuvchi kam uchraydigan xavfli o'smalar turi. Eng keng tarqalgan shakllar qatoriga liposarkoma, leyomiosarkoma va shvannoma kiradi. ([https://www.annalsofoncology.org/article/S0923-7534\(19\)31692-8/fulltext](https://www.annalsofoncology.org/article/S0923-7534(19)31692-8/fulltext)).

Hozirgi kunga qadar a'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarining etiologik omillari aniqlanmagan. Liposarkomalar – har xil darajadagi differensiyasiyaga ega bo'lgan o'sma lipositlari/lipoblastlaridan tashkil topgan xavfli mezenximal o'smalardir. Ularning gistogenetik manbai aksariyat hollarda paranefral yog' to'qimasi, yo'g'on yoki ingichka ichak tutqichidagi yog' to'qimasi hisoblanadi. Leyomiosarkomalar – liposarkomalardan keyin a'zodan tashqari qorin parda orti o'smalari orasida ikkinchi o'rinda turadi. (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/10993610/>). Ular silliq mushak hujayralaridan shakllanadigan xavfli mezenximal o'smalardir. A'zodan tashqari qorin parda orti lokalizatsiyasiga ko'ra ular ikki gistogenetik manbaga ega: ingichka ichak tutqichining miositlari va pastki kovak vena hamda uning visseral shoxlarining mushak hujayralari. Shuning uchun a'zodan tashqari qorin parda orti leyomiosarkomalari va

pastki kovak vena hamda buyrak venalarining leyomiosarkomalari ajratiladi. Periferik nerv qobig‘i hujayralaridan kelib chiqqan xavfli o‘smalar (havfli shvannomalar) – a‘zodan tashqari qorin parda orti xavfli o‘smalarining uchinchi eng keng tarqalgan guruhidir. Ular neyroektodermal kelib chiqishga ega bo‘lib, shvannov hujayralari va perinevral fibroblastlardan (neyrofibrosarkomalar) shakllanadi. Boshqa gistologik turlar ancha kam uchraydi. (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/29846498/>).

RSNPMSOiRning 2023 yildagi statistik ma'lumotlariga ko‘ra, a‘zodan tashqari qorin parda orti o‘smalari bilan kasallanish darajasi 100 ming aholiga 0,4 holatni tashkil etadi va so‘nggi 10 yil davomida barqaror qolmoqda. Bu respublikada ilk bor aniqlangan barcha xavfli yangi hosilalarning 5,2% ni tashkil etadi. 2023 yilda jami 134 nafar bemorda a‘zodan tashqari qorin parda orti o‘smalari birinchi marta aniqlangan. Ulardan 5,2% holat profilaktik ko‘riklar paytida faol aniqlangan. Morfologik tasdiqlangan holatlar ulushi 92,5% ni tashkil etadi. Birinchi bosqichda 1,5%, ikkinchi bosqichda 44,8%, uchinchi bosqichda 38,8%, to‘rtinchi bosqichda 10,4% bemorda aniqlangan. 4,5% holatda kasallik bosqichini aniqlash imkoni bo‘lmagan. 2025 yil boshiga kelib 504 nafar bemor dispanser nazoratida bo‘lgan, kasallik tarqalish darajasi 1,4 holat/100 ming aholi ni tashkil etgan. Respublika bo‘yicha 5 yillik tirik qolish darajasi 27,2%, bir yillik letallik 24,7% ni tashkil etadi. 2023 yilda a‘zodan tashqari qorin parda orti o‘smalari sababli 79 bemor vafot etgan, bu esa 100 ming aholiga 0,2 holat ni tashkil etadi.

Klinik tasnifi

A‘zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarini kodlashning o‘ziga xosligi shundaki, ushbu o‘smalar yumshoq to‘qima sarkomalari qatoriga kiradi. Ko‘pchilik yumshoq to‘qima sarkomalarining gistologik turlari katta yoshli bemorlarda qorin parda orti lokalizatsiyasida juda kam uchraydi. Xalqaro kasalliklar va sog‘liq muammolarining 10-tahrirdagi statistik klassifikatsiyasi (MKB-10)ga muvofiq, a‘zodan tashqari qorin parda orti sarkomalari C48.0 kodi bilan belgilanadi.

1.5. Xolat va kasallikning tasnifi (kasallik va holat guruhining)

1.5.1. Xalqaro gistologik tasnif (<https://publications.iarc.fr/Book-And-Report-Series/Who-Classification-Of-Tumours/WHO-Classification-Of-Tumours-Of-Soft-Tissue-And-Bone-2013>)

A‘zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarining xalqaro gistologik klassifikatsiyasi Yumshoq to‘qima sarkomalarining xalqaro gistologik klassifikatsiyasiga mos keladi, u Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) mutaxassisleri tomonidan ishlab chiqilgan (4-tahrir, 2013 yil) (jadval 4). (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24378391/>)

4-jadval. Yumshoq to‘qima sarkomalarini halqaro gistologik tasnifi

8680/3	Paraganglioma, xavfli
---------------	------------------------------

8693/3	Buyrak usti bezidan tashqari paraganglioma, xavfli Nexromaffin paraganglioma, xavfli
8710/3	Glomangiosarkoma Glomus sarkomasi
8711/3	Glomus o'smasi, xavfli
8800/3	Sarkoma, BDU Mezenximal o'sma, xavfli Yumshoq to'qima sarkomasi Yumshoq to'qima o'smasi, xavfli
8801/3	Urchuqsimon hujayrali sarkoma
8802/3	Gigant hujayrali sarkoma <i>suyaklardan tashqari M-9250/3)</i> Polimorf-hujayrali sarkoma
8803/3	Mayda hujayrali sarkoma Yirik hujayrali sarkoma
8804/3	Epitelioid sarkoma Epitelioid- hujayrali sarkoma
8805/3	Differensiallashmagan sarkoma
8806/3	Desmoplastik mayda-chiirik hujayrali o'sma
8810/3	Fibrosarkoma, BDU
8811/3	Fibromiksosarkoma
8813/3	Fassial fibrosarkoma
8814/3	Infantil fibrosarkoma Tug'ma fibrosarkoma
8815/3	Solitar fibroz o'sma, xavfli
8830/3	Xavfli fibroz gistiositoma
8832/3	Dermatofibrosarkoma, BDU (S44.) Dermatofibrosarkoma bo'rtib turuvchi, BDU (S44.)
8833/3	Pigment dermatofibrosarkoma bo'rtib turuvchi (S44.) Bednar o'smasi (S44.)
8840/3	Miksosarkoma
8850/3	Liposarkoma, BDU Fibroliposarkoma
8851/3	Liposarkoma, yuqori differensiallashgan Lipomasimon liposarkoma

	Liposarkoma, differensiallashgan. Yalligʻlanishli liposarkoma. Sklerozlanuvchi liposarkoma
8852/3	Miksoid liposarkoma Miksoliiposarkoma
8853/3	Yumaloq hujayrali liposarkoma
8854/3	Pleomorf liposarkoma
8855/3	Aralash liposarkoma
8857/3	Fibroblastik liposarkoma
8858/3	Dedifferensiallashgan liposarkoma
8890/3	Leyomiosarkoma, BDU
8891/3	Epitelioid leyomiosarkoma
8894/3	Angiomiosarkoma
8895/3	Miosarkoma
8896/3	Miksoid leyomiosarkoma
8900/3	Rabdomiosarkoma, BDU Rabdosarkoma
8901/3	Pleomorf rabdomiosarkoma, kattalash tipi Pleomorf rabdomiosarkoma, BDU
8902/3	Rabdomiosarkoma aralash tipi Aralash embrional rabdomiosarkoma va alveolyar rabdomiosarkoma
8910/3	Embrional rabdomiosarkoma, BDU Embrional rabdomiosarkoma, pleomorf Botrioid sarkoma Grozdsimon sarkoma
8912/3	Urchuqsimon hujayrali rabdomiosarkoma
8920/3	Alveolyar rabdomiosarkoma
8921/3	Rabdomiosarkoma gangliylar differensiasiyasi bilan Ektomezeximoma
8930/3	Endometrial stromal sarkoma, BDU (S54.1) Endometrial sarkoma, BDU (S54.1) Endometrial stromal sarkoma yuqori xavf darajasi bilan (S54.1)
8931/3	Endometrial stromal sarkoma past xavflilik darajasi bilan (S54.1) Endolimfatik stromal mioz (S54.1) Endometrial stromatoz (S54.1)

	Stromal endometrioz (S54.1) Stromal mioz, BDU (S54.1)
8935/3	Stromal sarkoma, BDU
8936/3	Gastrointestinal stromal sarkoma Gastrointestinal stromal o'sma, xavfli GISO (GIST, GastroIntestinal Stromal Tumor), xavfli
8940/3	Aralash o'sma, xavfli, BDU
8963/3	Xavfli rabdoid o'sma Rabdoid sarkoma Rabdoid o'sma, BDU
8964/3	Buyrak yorug' hujayrali sarkomasi (S64.9)
8982/3	Xavfli mioepitelioma Mioepitelial saraton
8990/3	Mezenximoma, xavfli Aralash mezenximal sarkoma
8991/3	Embrional sarkoma
9020/3	Bargsimon (filloid) o'sma, xavfli (S50._) Bargsimon sistosarkoma (filloid), xavfli (S50._)
9040/3	Sinovial sarkoma, BDU Sinovioma, BDU Sinovioma, xavfli
9041/3	Sinovial sarkoma, urchuqsimon Sinovial sarkoma, monofaz fibroz
9042/3	Sinovial sarkoma, epitelioid-hujayrali
9043/3	Sinovial sarkoma, bifaz
9044/3	Yorug' hujayrali sarkoma, BDU (<i>buyrakdan tashqari M-8964/3</i>) Pay va aponefrozning yorug' hujayrali sarkomasi (S49._) Yumshoq to'qima melanomasi, xavfli (S49._)
9120/3	Gemangiosarkoma Angiosarkoma
9124/3	Kupfer hujayralaridan sarkoma (S22.0)
9130/3	Gemangioendotelioma, xavfli Gemangioendotelial sarkoma
9133/3	Epitelioid gemangioendotelioma, xavfli

	Tomir ichi bronxial-alveolyar o'sma (S34._) [ust.]
9140/3	Kaposhi sarkomasi Ko'plab gemorragik sarkoma
9150/3	Gemangioperisitoma, xavfli
9180/3	Osteosarkoma, BDU (S40._, S41._) Osteogen sarkoma, BDU (S40._, S41._) Osteoblastik sarkoma (S40._, S41._) Osteoxondrosarkoma (S40._, S41._)
9220/3	Xondrosarkoma, BDU (S40._, S41._) Fibroxondrosarkoma (S40._, S41._)
9231/3	Miksoid xondrosarkoma
9240/3	Mezenximal xondrosarkoma
9251/3	Yumshoq to'qimalarning xavfli gigant hujayrali o'smasi
9252/3	Xavfli tenosinovial gigant hujayrali o'sma(S49._) Payli qinning gigant hujayrali o'smasi, xavfli (S49.)
9364/3	Periferik neyroektodermal o'sma Neyroektodermal o'sma, BDU Periferik primitiv neyroektodermal o'sma, BDU PPNEO (PPNET, Peripheral Primitive NeuroEctodermal Tumor)
9365/3	Askin o'smasi
9473/3	Primitiv neyroektodermal o'sma, BDU PNEO (PNET, Primitive NeuroEctodermal Tumor), BDU Markaziy asab tizimi primitiv neyroektodermal o'smasi, BDU (S71._) SNS-PNEO (CPNET, Central Primitive NeuroEctodermal Tumor)(S71.) Supratentorial PNEO (PNET, Primitive NeuroEctodermal Tumor)(S71.)
9540/3	Periferik nervlar qobig'i xavfli o'smasi ZOOPN (MPNST, Malignant Peripheral Nerve Sheath Tumor), BDU Neyrofibrosarkoma [ust.] Neyrogen sarkoma [ust.] Neyrosarkoma [ust.] Epitelioid ZOOPN (MPNST) Melanotik ZOOPN (MPNST) Melanotik psammomatoz ZOOPN (MPNST) Bezli differensirovkali ZOOPN (MPNST) Mezenximal differensirovkali ZOOPN (MPNST)

9561/3	Periferik nervlarning xavfli o'smasi rabdomioplastik differensirovka bilan Xavfli shvannoma rabdomioplastik differensirovka bilan ZOOPN (MPNST, Malignant Peripheral Nerve Sheath Tumor) rabdomioplastik differensirovka bilan Triton-o'sma, xavfli
9571/3	Perinevrioma, xavfli Perinevral ZOOPN (MPNST, Malignant Peripheral Nerve Sheath Tumor)
9580/3	Donador-hujayrali o'sma, xavfli Donador-hujayrali xavfli mioplastoma
9581/3	Yumsho to'qimalar alveolyar sarkomasi

Izohlar: Xavfli o'smaning gistologik darajasi (Grade) – rutin gistologik tekshiruv davomida French Federation of Cancer Centers (FNCLCC) tizimi bo'yicha baholanadi. (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/6693192/>). Shbu tizim quyidagi parametrlarni ball bo'yicha baholashni o'z ichiga oladi: o'sma hujayralarining differensiyasiya darajasi, mitozlar soni, o'smadagi nekroz maydoni. Gistologik daraja (G) sarkomaning gistologik turiga bog'liq emas, balki uning morfologiyasiga asosan aniqlanadi. Tizim o'smalarni yuqori differensiyasiyalangan (Grade 1) va past differensiyasiyalangan (Grade 2 va 3) guruhlariga ajratadi. Sarkomaning gistologik darajasini aniqlash uning gistologik turi (nozologik shakli) belgilangandan so'ng amalga oshiriladi. Agar o'sma xavflilik potentsiali chegarada (aniqlanmagan) bo'lsa (intraabdominal desmoid fibromatoz, solitar fibroz o'sma/gemangioperisitoma, ba'zi gastrointestinal stromal o'smalar, yallig'lanishli miofibroblastik o'sma), gistologik daraja ko'rsatilmaydi.

A'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarining davolash patomorfozi darajasini aniqlash usullari bo'yicha yagona fikr mavjud emas. (https://www.researchgate.net/publication/316850978_Aims_and_methods_of_the_work_of_a_pathologist_in_modern_oncology). Milliy markazlarda a'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarining davolash patomorfozi darajasi Lavnikova tomonidan ishlab chiqilgan to'rt bosqichli tizim yordamida aniqlanadi. Ushbu tizim identifikatsiya qilish mumkin bo'lgan («tirik») o'sma hujayralari egallagan maydonni hisobga oladi. A'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarining biopsiya materiallari standart gistologik tadqiqotga tayyorlash jarayonida maxsus talablarga ega emas.

Rejali jarrohlikdan so'ng majburiy morfologik tadqiqot nafaqat o'smaning gistologik turini aniqlash, balki neoad'yuvant kimyo terapiyasi o'tkazilgan hollarda davolash patomorfozi darajasini baholash imkonini beradi. Bu esa keyingi davolash taktikasi va prognoz baholash uchun muhim. A'zodan tashqari qorin parda orti

sarkomalarining, ayniqsa, yirik o'lchamdagilarining rezeksiya chekkalaridagi o'smani aniqlash juda qiyin.

(<https://istina.msu.ru/publications/book/318224457/>). Bunday urinishni jarroh va morfolog tomonidan birgalikda o'tkaziladigan tadqiqot orqali amalga oshirish mumkin. Agar jarrohlikning radikalligi borasida shubhalar paydo bo'lsa, jarroh bu holatni operatsiya protokolida ko'rsatishi, rezeksiya chekkalarini belgilangan holda ajratishi va keyingi davolash taktikasi yuzasidan multidissiplinar konsiliumda muhokama o'tkazishi kerak.

1.5.2. Bosqichlash [9] (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24758500/>)

Hozirgi vaqtda a'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarining bosqichi yumshoq to'qima sarkomalari uchun ishlab chiqilgan TNM stadiyalash tizimi (7-tahrir, 2011) bo'yicha belgilanadi (jadval 5).

Bosqichni aniqlash o'sma hajmi, xavflilik darajasi va uzoq metastazlarning mavjudligi kabi ko'rsatkichlarga asoslanadi.

TNM 7-tahriri (2011) bo'yicha stadiyalash jadvali (jadval 5).

O'sma o'lchami:

T1 – o'sma o'lchami ≤ 5 sm;

T2 – o'sma o'lchami >5 sm;

Joylashish chuqurligi

a – o'sma yuzaki fassiya ustida joylashgan;

b – o'sma yuzaki fassiya ostida joylashgan;

xavflilik darajasi (G):

G1 – past;

G2, G3 – yuqori.

5-jadval. Yumshoq to'qima sarkomalarini TNM tizimi bo'yicha bosqichlash (7-nashr, 2011 y.)

Bosqich	T	N	M	Xavflilik darajasi	O'smaning o'lcham va lokalizatsiyasi
IA	T1a	N0	M0	Past	≤ 5 sm, yuzaki
	T1b	N0	M0	Past	≤ 5 sm, chuqur
IB	T2a	N0	M0	Past	>5 sm, yuzaki
	T2b	N0	M0	Past	>5 sm, chuqur
IIA	T1a	N0	M0	Yuqori	≤ 5 sm, yuzaki

	T1b	N0	M0	Yuqori	≤5 sm, chuqur
IIB	T2a	N0	M0	Yuqori	>5 sm, yuzaki
III	T2b	N0	M0	Yuqori	>5 sm, chuqur
	Har qanday T	N1	M0	Har qanday	Har qanday
IV	Har qanday T	Har qanday N	M1	Har qanday	Har qanday

TNM tizimining 8-tahriri (2016) bo'yicha T1 indeksi o'sma hajmi ≤5 sm, T2 – >5 sm, lekin ≤10 sm, T3 – >10 sm, lekin ≤15 sm, T4 – >15 sm ni anglatadi.

6-jadval. A'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarini TNM (8-tahrir, 2016) tizimi bo'yicha stadiyalash.

Bosqich	T	N	M	Xavflilik darajasi
IA	T1	N0	M0	Past, GX
IB	T2,T3,T4	N0	M0	Past, GX
II	T1	N0	M0	Yuqori
IIIA	T2	N0	M0	Yuqori
IIIB	T3, T4	N0	M0	Yuqori
IIIB	Har qanday T	N1	M0	Har qanday
IV	Har qanday T	Har qanday N	M1	Har qanday

3. Tekshiruv usullari, uslublari, tibbiy muolajalar yondashuvlari va tashxislash jarayonlari.

Tashhis qo'yishning tashhislash mezonlari:

- Shikoyatlari va anamnez:

- Qorinda qo'l bilan seziladigan o'smaning mavjudligi
- Qorin og'rig'i – engil, uyqunuvchi noaniq og'riqlardan to kuchli, xurujsimon og'riqlargacha
- Oshqozon diskomforti – ishtaha yo'qolishi, kekirish, ba'zan qayt qilish, qorin yuqori qismida og'irlik hissi
- Ichak ish faoliyatining buzilishi – qabziyat, ich ketishi, ularning navbatma-navbat almashishi, qorinda g'udullash va shishishi.
- Umumiy holatning o'zgarishi – umumiy behollik, charchoq, zaiflik, vazn yo'qotish,

isitma, teri qoplamlarining oqarishi

- Qo‘l bilan seziladigan o‘smaning mavjudligi

- Fizikal tekshiruvlar

Ob'ektiv tekshiruv ma'lumotlari:

- Ko‘rik: teri qoplamlarining oqarishi, qorin asimmetriyasi
- Qorinni palpasiya qilish: o‘smanni palpasiya orqali aniqlash, bu kasallik bosqichi, anatomik o‘shish shakli va qorin devori tarangligiga bog‘liq
- Qorinni perkussiya qilish: o‘sma ustidagi tovushning pasayishi

- Laborator tekshiruvlar:

Asosiy tekshiruvlar:

- Umumiy qon tahlili – gipoxrom anemiya, EChTning oshishi, leykositoz kuzatiladi
- Axlatda yashirin qon tahlili – yo‘g‘on ichakka o‘sma o‘shib kirganda ijobiy reaksiya bo‘ladi.
- Koagulogramma – giperkoagulyasiya belgilari kuzatilishi mumkin (hamisha emas)

Qo‘shimcha tekshiruvlar: yo‘q.

Instrumental tekshiruvlar:

- Qorin bo‘shlig‘i va qorin parda orti a'zolarining kontrastli KTsi – o‘sma jarayoni tarqalish darajasini aniqlash maqsadida.
- Kichik chanoq a'zolarining MRT (agar o‘sma kichik chanoqda joylashgan yoki unga tarqalgan bo‘lsa) – o‘sma tarqalish darajasini aniqlash maqsadida.
- Ko‘krak qafasi a'zolarining KT – o‘pkada metastazlarni aniqlash uchun
- Qorin bo‘shlig‘i va qorin parda orti a'zolarining UTTsi
- PET-KT/MRT – kichik chanoq, qorin bo‘shlig‘i, qorin parda orti, ko‘krak qafasi, bosh miya, yumshoq to‘qimalar va suyaklardagi o‘sma jarayoni tarqalishini, shuningdek, kichik o‘smalar, residivlar va metastazlarni aniqlash uchun eng sezgir va axborotli usullardan biri;
- Punksion biopsiya – keng igna yordamida to‘qima namunalarini olish, UTT, KT yoki MRT nazorati ostida o‘tkaziladi;
- Insizion biopsiya – yangi hosilaning bir qismini yoki to‘qima namunasini olib tashlash, punktsion biopsiya xavfli yoki noaniq natijalar bergan hollarda qo‘llaniladi;

- Kolonoskopiya – o‘sma jarayoni tarqalish darajasini aniqlash uchun o‘tkaziladi;
- FEGDS – o‘sma jarayoni tarqalish darajasini aniqlash uchun o‘tkaziladi.

- Muolaja va aralashuvga tayyorlashda asosiy tekshirish usullari

1. QUT leykoformula va trombositlar miqdorini hisoblash bilan;
2. Qon biokimyoviy tahlyoki (natriy, kaliy, kalsiy, glyukoza, mochevina, kreatinin, peshob kislotasi, umumiy oqsil, albumin, umumiy bilirubin, bevosita bilirubin, LDG, AST, ALT, SRB, ishqoriy fosfotaza);
3. AVO tizimi bo‘yicha qon tuguhini aniqlash;
4. Rezus-faktorni aniqlash;
5. Peshob umumiy tahlili;
6. Koagulogramma (AChTV, PV, MNO, PTI, fibrinogen);
7. IFA yoki IXL usulida virusli gepatit B va C markerlarini aniqlash
8. B va C virusli gepatitlari uchun PZR (sifatli)
9. IFA usulida OIV-infeksiyani aniqlash (HIVAg/anti-HIV);
10. Zahmga serologik reaksiyalar majmuasi;
11. Ko‘krak qafasi rentgen tekshiruvi (skopiya, grafiya);
12. Qorin bo‘shlig‘i va qorin parda orti kontrastli sohasi KTsi;
13. Kichik chanoq MRTsi (o‘smaning kichik chanoqqa jeoylashishi yoki tarqalishida);
14. Kompleks ultratovush diagnostikasi (jigar, o‘t pufagi, me‘da osti bezi, taloq, buyraklar, qorin parda orti soha va periferik limfa tugunlari);
15. Ko‘krak qafasi kompyuter tomografiyasi;
16. Fibroezofagogastroduodenoskopiya;
17. Punksion yoki insizion biopsiya;
18. Bioptatni sitologik tekshirish (hosilani, limfa tugunini) *;
19. Bioptatni gistologik tekshirish (hosilani, limfa tugunini) *
20. EKG;
21. ExoKG;

- Muolaja va aralashuvga tayyorlashda qo‘shimcha tekshirish usullari:

1. PZR usulida Ebshteyn-Barr virusi, 1-2 tip herpes, sitomegalovirus, toksoplazmoz;
2. B va C gepatit viruslariga PZR (miqdoriy);

3. SOVID-19 gi PZR;
4. Qonni kislota ishqoriy holati (KIH) va gazlarga aniqlash;
5. Bevosita va bilvosita Kumbs reaksiyasi;
6. Standart sitogeneti tekshirish;
7. Ferritin, folatlar, zardob temiri, Vitamin V12ni aniqlash;
8. ProBNP
9. Prokalsitonin
10. Antitrombin III, D-dimer
11. Fertil yoshidagi ayollarda – homiladorlikka test, XGChni aniqlash;
12. Periferik qon IFTsi;
13. Standart –sitogenetik tekshirish;
14. Bioptatni immunogistokimyoviy tekshirish (hosilani, limfa tugunini)*
15. O‘smalarni molekulyar-genetik tekshiruvi (biopsiya va amaliyotdan keyingi materiallarni, oynalarni, o‘smalarning erkin sirkulyasiyadagi DNKlari);
16. Kolonoskopiya;
17. Me'da, 12 barmoq ichak va me'da osti bezini rentgenoskopik tekshiruvi, kontrastlash bilan (ikki karra kontrastlash);
18. Bosh va bo‘yin kontrastli KTsi;
19. Bosh miya MRTsi;
20. Spirografiya;
21. Burun yondosh bo‘liqlari rentgenografiyasi;
22. Skelet suyaklarini skanirlash;
23. Tomirlar (vena va/yoki arteriyalar) UTDGsi;
24. Xolter – monitorlash bilan EKG
25. Butun tana PET/KTsi**;

* Agar avval o‘tkazilmagan bo‘lsa.

** Kasallikning boshlanishida va qayta bosqichlash paytida bajarish kerak.


- Mutaxassislarning konsultativ ko‘ruvi uchun ko‘rsatmalar:

- **Kardilog ko‘rigi** (50 yosh va undan katta bemorlarda, shuningdek, YuQT da patologiyasi bo‘lgan 50 yoshdan kichik bemorlar);
- **Ginekolog ko‘rigi** (kichik chanoq a'zolarida hajmli hosila belgilari bo‘lgan ayollarda,

oilaviy, birgalikda keluvchi saraton turlarini istisno qilish maqsadida);

- Me'da osti bezi saratonini davolash boshlanishidan oldin **akusher-ginekolog/reproduktologning maslahati** zarur, agar bemor kelajakda farzand ko'rishni xohlasa, yordamchi reproduktiv texnologiyalarning mumkin bo'lgan variantlarini muhokama qilish, shuningdek, tug'ish yoshidagi bemorlarda o'smaga qarshi dori terapiyasi davrida, yaqin kelajakda va undan keyin istalmagan homiladorlikning oldini olish uchun ishonchli kontraseptiv vositalardan foydalanish masalasida [5];
- **nevropatolog ko'rigi** (qon tomir miya kasalliklarida, shu jumladan insult, miya shikastlanishi, epilepsiya, miasteniya, neyroinfeksion kasalliklar, shuningdek, ongni yo'qotishning barcha holatlarida);
- **endokrinolog ko'rigi** (endokrin a'zolari tomonidan hamroh kasalliklari bo'lgan taqdirda);
- **qon-tomir jarrohi ko'rigi** (varikoz kasallik, tug'ma/orttirilgan tomirlar patologiya mavjud bo'lgan hollarda);
- **pulmonolog ko'rigi** (o'pka parenximasida qoldiq patologiyalar mavjud bo'lganda, bakterial / virusli / noaniq genezli yallig'lanish jarayonidan keyin).
- **nefrolog ko'rigi** (buyrak patologiyasi, giperazotemiya mavjud bo'lganda).
- **ftiziatr ko'rigi** – agar o'pkaning sil kasalligiga shubha qilingan bo'lsa va periferik shakllanishlar mavjud bo'lsa.
- hamroh patologiyalar mavjud bo'lganda, **boshqa mutaxassislar ko'riklari**: ftiziatr (anamnezdagi sil kasalligi bo'lsa), yuqumli kasalliklar bo'yicha mutaxassis (surunkali gepatit bo'lsa) va boshqalar.

Diagnostik algoritm.



Differensial tashhislash

Tashhis	Differensial tashhis uchun asoslash	tekshiruv	Tashhisni istisno mezonlari
Buyraklar va tuxumdonlar kistasi	<p>Buyrak kistasi – patologik holat bo‘lib, unda bo‘shliqli tuzilmaning noormal o‘shishi kuzatiladi.</p> <p>Bo‘shliqli tuzilma hajmi 1 sm dan 10 sm gacha bo‘lishi mumkin, yakka yoki ko‘p sonli bo‘lishi mumkin.</p> <p>Tuxumdonlar kistasi – suyuqlik bilan to‘ldirilgan, ayollarning bir yoki ikki tuxumdon yuzasida shakllanadigan tuzilma bo‘lib, ko‘pchilik hollarda follikuladan rivojlanadi. Anatomik jihatdan, bu yupqa devorli, xaltacha ko‘rinishidagi bo‘shliqli tuzilma.</p> <p>Uning o‘lchami bir necha santimetrdan 15–20 sm gacha etishi mumkin.</p> <p>Holatlarning 90% da kista funksional yoki follikulyar hisoblanadi.</p>	Qorin bo‘shlig‘i va QPO UTTsi, Qorin bo‘shlig‘i va QPO UMRTsi, Qorin bo‘shlig‘i va QPO KTsi, laparoskopiya.	To‘qimalar ichi kistasining mavjudligi
Asorta va	Aorta anevrizmasi – magistral	Ko‘krak/qorin	Anevrizmatik

uning shaxlari anevrizmasi	arteriyaning ma'lum qismidagi patologik lokal kengayish bo'lib, uning devorlarining zaifligi bilan bog'liq. Lokalizatsiyasiga qarab, aorta anevrizmasi ko'krak qafasi yoki qorin sohasida og'riq, pulsirlovchi o'smaga o'xshash tuzilmaning mavjudligi, hamda qo'shni a'zolari siqish bilan bog'liq belgilar – nafas qisishi, yo'tal, disfoniya, disfagiya, yuz va bo'yinda shish va sianoz bilan namoyon bo'lishi mumkin.	asortasini KT-aortografiyasi	tomirning aniqlanishi
Gematomalar	Qorin parda orti gematomalari ko'pincha chanoq suyaklari sing'i (46,9%), qorin parda ortida joylashgan a'zolarining shikastlanishi (31,6%), umurtqa pog'onasi jarohatlari (21,5%) natijasida yuzaga keladi. Odatda, qorin parda orti qon quyilishlari og'ir jarohatlar va birgalikdagi shikastlanishlar bo'lgan bemorlarda uchraydi.	Qorin bo'shlig'i va QPO UTTsi, Qorin bo'shlig'i va QPO MRTsi, Qorin bo'shlig'i va QPO KTsi	Avvalgi travmaning va qorin parda orti hosilasining mavjudligi

4. AMBULATORIY^a DARAJASIDA DAVOLASH TAKTIKASI:

ATQPOSni davolash rejasi

ATQPOS davolash rejasi mutaxassislardan iborat multidissiplinar guruh tomonidan maxsus markazlarda muhokama qilinadi va quyidagilarni hisobga olishi kerak:

- O'sma jarayonining tarqalishi (kasallikning kechish klinik bosqichi);
- Bemorning ob'ektiv holati;
- Asosiy kasallikning prognozi;
- Hamroh kasalliklar;
- Bemorning istaklari.

Ambulator sharoitda qorin parda orti noorgan o'smalarini immunoterapiyasi onkolog yoki onkodispenserning ambulator kimyo terapiyasi kabineti ximeoterapevti nazorati ostida o'tkaziladi. Ambulator davolanish ECOG klassifikatsiyasi bo'yicha I–II ballga ega

bo‘lgan, somatik holati barqaror va hayot sifati saqlangan bemorlarga tavsiya etiladi.

Nomedikamentoz davo:

Konservativ davo o‘tkazilayotganda (immunoterapiya) bemorning rejimi – umumiy;

Parxez stol - №15.

Medikamentoz davo:

Ambulator onkoterapiya multidissiplinar guruh (MDG) qaroriga muvofiq onkologik markazning ambulator kimyo terapiyasi kabineti (KAX) da, doimiy shifokor nazorati talab etilmaydigan davolash rejimlarida o‘tkaziladi.

KAX sharoitida davolanish uchun ECOG shkalasi bo‘yicha 0–1 ballga ega bo‘lgan bemorlar qabul qilinadi.

7-jadval. Asosiy dori vositalari ro‘yxati (100% qo‘llanish ehtimoliga ega bo‘lganlar)

Dori guruhi	Dori vositasining HPN	Qo‘llanilish usuli	ID
BCR-ABL tirozinkinaza ingibitori	Imatinib	Dozasi va qabul qilish chastotasi kimyo terapiyasi rejimlariga muvofiq belgilanadi, v/i	A
O‘smaga qarshi vosita, proteintirozinkinaza ingibitori	Sunitinib	Dozasi va qabul qilish chastotasi kimyo terapiyasi rejimlariga muvofiq belgilanadi, og‘iz orqali	A
O‘smaga qarshi vosita, hujayrali ichi tirozinkinaza selektiv va teskari ingibitori	Lapatinib	Dozasi va qabul qilish chastotasi kimyo terapiyasi rejimlariga muvofiq belgilanadi, og‘iz orqali	A
O‘smaga qarshi vosita, proteintirozinkinaza ingibitori	Dazatinib	Dozasi va qabul qilish chastotasi kimyo terapiyasi rejimlariga muvofiq belgilanadi, og‘iz orqali	A

Monoklonal antitana	Denosumab	Dozasi va qabul qilish chastotasi kimyo terapiyasi rejimlariga muvofiq belgilanadi, teri ostiga	A
Yuklash (havola)	https://diseases.medelement.com/disease/%D0%B2%D0%BD%D0%B5%D0%BE%D1%80%D0%B3%D0%B0%D0%BD%D0%BD%D1%8B%D0%B5-%D0%B7%D0%B0%D0%B1%D1%80%D1%8E%D1%88%D0%B8%D0%BD%D0%BD%D1%8B%D0%B5-%D0%BE%D0%BF%D1%83%D1%85%D0%BE%D0%BB%D0%B8-%D0%BA%D0%BF-%D1%80%D0%BA-2023/17902		

Qo‘shimcha dori vositalari ro‘yxati (100% qo‘llanish ehtimoliga ega bo‘lmaganlar) – mavjud emas.

Jarrohlik davosi: yo‘q.

3.4 Keyingi olib borish:

Kuzatuv rejimi:

- Birinchi yil – har 3 oyda bir marta
- Ikkinchi yil – har 6 oyda bir marta
- Keyingi yillarda, umrbod – har yili bir marta

Tekshiruv ko‘lami:

- fizikal;
- laborator – QUT, QBT, PUT, koagulogramma.

Asosiy tekshiruvlar:

- Qorin bo‘shlig‘i va qorin parda orti a‘zolarining kontrastli KTsi;
- Kichik chanoq a‘zolarining MRTsi (agar o‘sma kichik chanoqda joylashgan yoki unga tarqalgan bo‘lsa);
- Ko‘krak qafasi a‘zolarining KTsi.

Qo‘shimcha tekshiruvlar:

- PET-KT/MRT (ko‘rsatmalar bo‘yicha har 6 oyda bir marta)
- Qorin bo‘shlig‘i va qorin parda orti a‘zolarining UTT

Protokolda keltirilgan davolash samaradorligi va diagnostika usullari xavfsizligining indikatorlari:

- **To'liq samara** – barcha shikastlanish o'choqlarining kamida 4 hafta davomida yo'qolishi;
- **Qisman samara** – barcha yoki ayrim o'smalar hajmining 50% yoki undan ko'proq kamayishi, boshqa o'choqlarda progressiya bo'lmagan holatda;
- **Stabilizatsiya** – hajmning 50% dan kamaymasligi yoki 25% dan oshmasligi, yangi o'choqlar paydo bo'lmagan holatda;
- **Progressiya** – bir yoki bir nechta o'smalar hajmining 25% dan ko'proq oshishi yoki yangi o'choqlar paydo bo'lishi.

5. Tibbiy yordam ko'rsatish turidan kelib chiqib shifoxonaga yotqizish uchun ko'rsatmalari:

Rejali yordam ko'rsatish shifoxonasiga yotqizish uchun ko'rsatmalar:

1. Murakkab intervension diagnostika tibbiy aralashuvlarini o'tkazish zarurati, ulardan so'ng kunduzgi yoki sutkalik stasionar sharoitida kuzatuv talab etilishi
2. Ixtisoslashgan xavfli o'smalarga qarshi davolash (jarrohlik aralashuvi, luch terapiyasi, jumladan kontaktli, distansion va boshqa turlari, dori vositalari bilan davolash va boshqalar) ko'rsatmalari mavjud bo'lib, sutkalik yoki kunduzgi stasionarda kuzatuv talab etilishi

Shoshilinch yordam ko'rsatish shifoxonasiga yotqizish uchun ko'rsatmalar:

- o'tkir ichak tutilishi;
- ichki qon ketish;
- og'riq sindromi.

6. Stasionar darajasida davolash taktikasi:

Davolash taktikasi:

- o'sma o'chog'i va metastazlarni likvidatsiyasi;
- o'sma jarayonining to'shliq yoki qisman regressiyasi, stabilizatsiyasiga erishish.

Bosqichlar bo'yicha davolash:

- **Ia bosqich** (T1bN0, NXM0, xavflilikning past darajasi): o'smani jarrohlik yo'li bilan olib tashlash.

- **Ib bosqich** (T2bN0, NXM0, xavflilikning past darajasi): o'smani jarrohlik yo'li bilan olib tashlash + rezidual o'sma sohasiga operatsiyadan keyingi nur terapiya SO'D

60–70Gr, BMO‘D 2 Gr (R1,R2 da).

- **II–III bosqichlar** (T1b–T2bN0, N1M0, xavflilikning yuqori darajasi): o‘smari jarrohlik yo‘li bilan olib tashlash (N+ da limfodisseksiya bajariladi) + operatsiyadan keyingi nur terapiya (SO‘D 40–50Gr, BMO‘D 2Gr) + 3–4 kurs ad'yuvant ximioterapii (o‘smarining sezgir gistologik turlarida). Keng hajmda o‘smari sog‘lom to‘qimalar doirasida, futlyarlik va zonalik prinsiplarini hisobga olgan holda kesib olish jarrohlik aralashuvining standart usuli hisoblanadi.

Agar R1 yoki R2 rezeksiya amalga oshirilgan bo‘lsa, rezidual o‘sma hududidagi umumiy o‘choqli nur terapiyasi dozasi 60–70 Gr gacha oshirilishi kerak, sog‘lom a'zolar va to‘qimalar tolerantli dozasi oshirilmasdan.

Agar resektabellik shubhali yoki o‘sma jarrohlik orqali olib tashlanmaydigan (nerezektabel) bo‘lsa, 40–50 Gr SO‘D bilan klassik fraksiyalashtirish rejimida luch terapiyasi va yoki 2–3 kurs kimyo terapiyasi (umumiy yoki regional gipertermiya sharoitida afzal) o‘tkaziladi.

Agar o‘smarining nerezektabelligi saqlansa, umumiy SO‘D 60–70 Gr gacha etkazilgan holda nur terapiyasi va 3–4 kurs kimyo terapiyasi o‘tkaziladi. Davolash sxemasi neoad'yuvant kimyo terapiyasining samaradorligi KT yoki UTT ma'lumotlari asosida baholanganidan so‘ng aniqlanadi.

- **IV bosqich** (har qanday T va NM1, xavflilikning har qanday darajasi):

Palliativ davolash individual dasturlar asosida kimyo terapiyasi va yoki nur terapiyasini o‘z ichiga oladi, shu jumladan modifikatsiyalangan sharoitlarda (umumiy va regional gipertermiyada) o‘tkaziladi.

Jarrohlik aralashuvlari o‘sma massasini kamaytirish va o‘sma tomonidan siqish belgilariga barham berish maqsadida amalga oshiriladi.

NB! Agar o‘sma rezektabel bo‘lsa va uzoq a'zolarida yakka yoki yagona metastazlar mavjud bo‘lsa, sitoreduktiv operatsiya bir vaqtning o‘zida yoki keyinchalik metastazlarni olib tashlash bilan o‘tkaziladi.

Ablyasiya va embolizatsiya o‘sma mavjudligi bilan bog‘liq belgilarni (og‘riq, qon ketish, nerv tuzilmalarining siqilishi va boshqalar) minimallashtirish uchun ham qo‘llaniladi.

Transarterial kimyoembolizatsiya (TAXE)

◇- TAXE o‘smari qon bilan ta'minlaydigan jigar arteriyalariga embolik agentlarni etkazib berish orqali qon tomirlarini yopishni ta'minlaydi.


◇ TAXE jigar sarkomasi metastazlarini davolash uchun jigarning nerezektabel kasalligi mavjud bo‘lgan bemorlar yoki standart terapiyaga javob bermaydigan bemorlar

uchun ko‘rib chiqilishi mumkin.


Joylashgan ablyasion davolash oligometastatik kasallikka ega bemorlarda umumiy tirik qolish ko‘rsatkichini yaxshilashi aniqlangan.

Jigar metastazlarining rezektabellik mezonlari: Nerezektabel jigardan tashqari metastazlar mavjud emasligi; Funktsional bardoshlik va subkompensasiya yoki dekompensasiya bosqichidagi hamroh kasalliklarning yo‘qligi; Barcha metastazlarni 0,1 sm yoki undan ortiq klirens bilan o‘smasiz va zararlanmagan holda olib tashlash imkoniyati; Jigarning 70 foizidan kam qismi yoki 6 segmentdan ko‘prog‘i zararlanmagan bo‘lishi.


6.1. Bemorni kuzatish kartasi, bemorni marshrutizasiyasi



Qorin parda orti xavfli o'smalarini davolash (mahalliy tarqalgan va metastatik jarayon)



Qorin parda orti xavfli o‘smalarini davolash



6.2 Nomedikamentoz davo:

- Rejim – konservativ davolash davomida bemorning rejimi umumiy. Erta operatsiyadan keyingi davrda – yotoq yoki yarim yotoq rejimi (jarrohlik hajmi va hamroh patologiyaga bog‘liq holda). Operatsiyadan keyingi davrda – palata rejimi.
- Dieta – jarrohlik davolashdan so‘ng №1-stol, keyin №2-stolga o‘tish.

Nur terapiya:

Operatsiyadan keyingi nur terapiyasi joylashgan o‘sma tarqalish darajasi St Ib – St IV ga mos kelganda tavsiya etiladi.

Rezidual o‘sma hududida operatsiyadan keyingi nur terapiyasi SO‘D 60–70 Gr, BMO‘D 2 Gr (R1, R2 holatida) miqdorida o‘tkaziladi.

Agar o'smaning rezektbelligi shubhali yoki u nerektabel bo'lsa, SO'D 40–50 Gr bilan klassik fraksiyalashtirish rejimida nur terapiyasi o'tkaziladi.

Nur terapiyasi konvensional (standart) yoki konformal rejimda statik ko'p maydonli nurlantirish usulida BMO'D 2–2,5–3,0 Gr bilan, umumiy doza 40–60 Gr gacha, o'sma o'sib kirgan hududga yo'naltirilgan holda o'tkaziladi.

Nur terapiyasi jarayonida organizmni nur shikastlanishidan himoya qiluvchi preparatlar qo'llash mumkin.

Nurlantirish gamma-terapevtik apparatlar yoki chiziqli tezlatgichlar yordamida amalga oshiriladi.

A'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarida nur terapiyasi prinsiplari

Yuqori residiv chastotasi va nisbatan past uzoq metastazlar chastotasi qorin parda orti noorgan o'smalarini kompleks davolashda nur terapiyasini qo'llashni asoslaydi. A'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarini davolashda nur terapiyasining roli hali aniq belgilanmagan. Nur terapiyasi jarrohlik bilan birga operatsiya oldidan va keyingi davrda qo'llaniladi [29].

- Operatsiya oldidan nur terapiyasi quyidagi maqsadlar uchun operabel va shartli operabel ATQPOO' bo'lgan bemorlarga tavsiya etilishi mumkin:

- anaplaziyaga uchragan, yaxshi oksigenasiyalangan va nurga yuqori sezgir hujayralarning nobud bo'lishi va tirik qolgan hujayralarning biologik xususiyatlarini o'zgartirish orqali o'smaning xavflilik darajasini pasaytirish;

- subklinik o'sma o'choqlarini to'liq yo'q qilish;

- sma atrofidagi yallig'lanish va shishni kamaytirish, hajmini cheklash va yumshatish;

- o'smaning biologik faolligini pasaytirish, mahalliy residivlar, implantasion va uzoq metastazlar rivojlanish xavfini kamaytirish;

- jarrohlik aralashuvi uchun qulayroq sharoit yaratish, ya'ni, o'sma hajmini kichraytirish va ayrim hollarda uni nerektabel holatdan operabel holatga o'tkazish, shuningdek, a'zoni saqlab qolish imkoniyatini ta'minlash [29, 30];

- perifokal shishni kamaytirish;

- o'sma atrofida "yolg'on kapsula" shakllantirish va uni sog'lom to'qimalardan aniqroq ajratish.

Tavsiyalar ishonchlilik darajasi – A (dalillar ishonchlilik darajasi – 3).

Izohlar: *Operatsiya oldidan nur terapiyasining afzalligi shundaki, u o'smaning hajmini kichraytirishi, uning rezektbelligini va jarrohlik aralashuvining radikalligi oshishini ta'minlashi mumkin. Shuningdek, GTV ni aniq belgilash imkoniyati yaratiladi, chunki o'sma tugunlari vizualizasiya qilinadi [31]. Nur terapiyasi natijasida o'sma*

kichrayishi jarrohlik davolash jarayonini engillashtirishi mumkin. O'smaning o'zi nurning maksimal dozasini oluvchi sohadan sog'lom to'qimalarni uzoqlashtirib, toksiklik darajasini kamaytirishi mumkin [29, 31]. Neoad'yuvant nur terapiyasi o'tkazilayotganda o'sma yaxshi oksigenasiyalangan bo'ladi, bu esa davolash samaradorligini oshiradi. Bu jarayon jarrohlik bosqichida o'sma hujayralarining qorin pardasi yoki qo'shni anatomik sohalarga tarqalish xavfini kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, operatsiyadan keyingi asoratlar tufayli uzoq muddatli davolash tanaffusining oldi olinadi.

• Davolash rejasini tayyorlashda quyidagi nurlantiriladigan hajmlarni aniqlash tavsiya etiladi:

- GTV (gross tumor volume) – aniqlangan o'sma hajmi: asosiy o'sma o'chog'i;
- CTV (clinical tumor volume) – klinik o'sma tarqalish sohasi;
- GTV + 2–3 sm chegara (fassiylar, suyaklar va havo bundan mustasno);
- PTV (planned treatment volume) – qo'llashdagi xato ehtimolini hisobga olgan nurlantiriladigan hajm;
- CTV + 0,5–1,0 sm chegara.

3D CRT usulida nur terapiyasi o'tkazilganda old-orqa va qiya maydonlar ishlatiladi.

• Texnik imkoniyatlar mavjud bo'lsa, barcha bemorlarda IMRT usulida konformal nur terapiyasi o'tkazish tavsiya etiladi. Tanafi xavfi yuqori bo'lgan a'zo – ingichka ichak. Razovaya ochagovaya doza (ROD) 1,8–2,0 Gr, summarnaya ochagovaya doza (SOD) 45,0–50,4 Gr.

• Agar o'sma qorin bo'shlig'ining yuqori qismlarida joylashgan bo'lsa, nafas olish harakatlari nazorati ostida davolash tavsiya etiladi.

Tavsiyalar ishonchlilik darajasi – A (dalillar ishonchlilik darajasi – 2).

• Operatsiyadan keyingi nur terapiyasi tirik qolgan o'sma hujayralarining sonini kamaytirish va residiv xavfini pasaytirish uchun tavsiya etiladi. Operatsiyadan keyingi nurlantiriladigan hajm operatsiyagacha bo'lgan holatga qaraganda kattaroq bo'ladi.

Tavsiyalar ishonchlilik darajasi – C (dalillar ishonchlilik darajasi – 4).

• Joylashgan yuqori xavfli residiv hududi yoki R1, R2 rezeksiya chegaralarini kliplash tavsiya etiladi. [36].

Tavsiyalar ishonchlilik darajasi – A (dalillar ishonchlilik darajasi – 2).

• CTV ni aniqlash uchun operatsiya oldidan olingan diagnostik tasvirlarni izodoz taqsimoti rejalashtirish dasturida birlashtirish tavsiya etiladi.

• Agar o'sma qolgan bo'lsa yoki R1, R2 rezeksiya qilingan bo'lsa, qo'shimcha «bust» etkazish maqsadga muvofiq: Mikroskopik tarqalish hududi uchun SO'D 16–18 Gr; Qolgan o'sma bo'lgan hududda SO'D 20–26 Gr [32, 33].

- Yuqori residiv xavfi mavjud bo‘lgan hududga IMRT usulida SO‘D 45,0–50,4 Gr dan integrasiyalangan «bust» qo‘llash tavsiya etiladi, buning uchun 25 fraksiyada SO‘D 57,5 Gr qo‘llaniladi. [32, 33, 36].

Tavsiyalar ishonchlilik darajasi – B (dalillar ishonchlilik darajasi – 2).

- Kam xavfli ATQPOO‘ erta bosqichlarini davolashda operasiyadan keyin 3D CRT yoki IMRT usulida regionar nur terapiyasi o‘tkazish tavsiya etiladi. Lojadagi chegaralardan 2–3 sm masofa bilan, BMO‘D 1,8–2,0 Gr, SO‘D 45,0–50,4 Gr. Agar rezeksiya chegarasida o‘sma belgilari aniqlansa, SO‘D 65–70 Gr. [32, 36].

Tavsiyalar ishonchlilik darajasi – A (dalillar ishonchlilik darajasi – 2).

- Yuqori xavfli ATQPOO‘ erta bosqichlarini davolashda operasiyadan keyin 3D CRT yoki IMRT usulida regionar nur terapiyasi o‘tkazish tavsiya etiladi. O‘sma o‘rnidagi chegaralardan 5 sm masofa bilan, BMO‘D 1,8–2,0 Gr, SO‘D 45,0–50,4 Gr, keyinchalik lokal nur terapiyasi 60 Gr gacha. Agar rezeksiya chegarasida o‘sma mavjud bo‘lsa, SO‘D 70 Gr. [35, 37].

6.3. Medikamentoz davo

Neyroendokrin o‘smalar kimyo terapiyasi:

Kimyo terapiya jarrohlik davosi mumkin bo‘lmaganda, sitoreduktiv jarrohlik amaliyotlaridan so‘ng buyuriladi.

Faoliyatdagi NEO‘ G1-G3: somatostatin analoglari (simptomatik terapiya):

Oktreotid 0,1 mg t/o, kuniga 3 marta qisqa muddat davomida (taxminan 2 hafta) uning samaradorligi va umumiy bardoshlilikini baholash maqsadida qo‘llaniladi, so‘ng oktreotid LAR 20 mg v/m har 28 kunda bir marta yuboriladi.

Agar 3 oy davomida klinik belgilar va kasallikning biologik markerlari ustidan etarli nazorat ta‘minlansa – oktreotid LAR 10 mg v/m har 28 kunda bir marta yuboriladi.

Agar 3 oy davomida klinik belgilari va biologik markerlari ustidan faqat qisman nazorat ta‘minlansa – oktreotid LAR 30 mg v/m har 4 haftada bir marta yuboriladi.

Tarqalgan neyroendokrin o‘smalar (yo‘g‘on ichak yoki birinchi o‘sma lokalizatsiyasi noma‘lum hollarda) – oktreotid LAR 30 mg v/m har 28 kunda bir marta, kasallik progressiyasigacha qo‘llaniladi.

Faoliyati yo‘q NEO‘:

Ki67<2-10%, G1/G2:

- somatostatin analoglari;
- α -IFN;

- Everolimus 10mg ichishga har kuni progressiyalanishgacha;
- Everolimus 10mg ichishga har kuni Oktreotid LAR bilan kombinasiyada 28 kunda 1 marta, progressiyalanishgacha Ki 67 3-20%, G1/G2:
- Ftorurasil + Everolimus;
- Temozolomid + Kapesitabin;
- somatostatin analoglari. Ki67>20%, G3:
- karboplatin / sisplatin + etopozid;
- temozolomid + bevasizumab;
- somatostatin analoglari.

Gastrointestinal stromal o'smalarni (GIST) dori bilan davolash bo'yicha amaliyo tavsiyalar

Residiv yoki metastatik kasallikda norezektabel o'smalarni davolash.

Terapiyaning birinchi liniyasi

Norezektabel o'smalar, residiv yoki metastatik kasallik holatida asosiy davolash usuli – targetli terapiya bo'lib, imatinib 400 mg kuniga tavsiya etiladi. Agar KIT geni 9-ekzonida mutasiya aniqlansa, imatinib 800 mg kuniga tavsiya etiladi (bu progressiyagacha bo'lgan vaqtni uzaytirishi aniqlangan, lekin umumiy yashovchanlik ko'rsatkichlariga statistik ahamiyatli ta'sir ko'rsatmaydi). Agar imatinib 400 mg kuniga qabul qilingan holda kasallik progressiyasi kuzatilsa, doza 800 mg kuniga oshirilishi tavsiya etiladi. Agar boshlang'ich holatda o'sma norezektabel bo'lgan bo'lsa va terapiya natijasida ijobiy samaraga erishilsa, davolash boshlanganidan 6–12 oy o'tib radikal jarrohlik imkoniyatini baholash maqsadga muvofiq.

Terapiyaning ikkinchi liniyasi:

Agar kasallik imatinib qabul qilingan holda progressiya qilsa (400 mg dan 800 mg gacha dozani oshirgandan keyin), imatinibni o'zlashtira olmaslik yoki birlamchi rezistentlik kuzatilsa, sunitinib terapiyasi tavsiya etiladi: 50 mg kuniga, 4 hafta davomida, so'ng 2 haftalik tanaffus. Agar kuchli nojo'ya ta'sirlar kuzatilsa, doza 37,5 mg kuniga tushirilishi mumkin.

Qorin parda orti sohasi sarkomalari

Tarqalgan o'sma jarayoni –III–IV bosqichlar:

Kimyo terapiyasi sarkomalarda disseminasiyalangan jarayonni davolashning asosiy usuli hisoblanadi. Eng ko'p qo'llaniladigan preparatlar doksorubisin, ifosfamid va dakarbazindir. Birlamchi liniya uchun disseminasiyalangan sarkomalarni kimyo terapiyasida standart rejim – doksorubisin + ifosfamid kombinasiyasidir. 65 yoshdan katta bemorlar uchun tanlov usuli antrasiklinlar bilan monoterapiya hisoblanadi. Agar bemorning umumiy holati yaxshi bo'lsa, kombinasiyalangan kimyo terapiyasi afzalroq, ayniqsa, o'sma javob reaksiyasi kuchli bo'lishi kutilayotganda. Yuzaki angiosarkomalarda alternativa sifatida taksanlar tavsiya etiladi, chunki ular ushbu gistologik turda yuqori xavfli o'smaga qarshi faollikni namoyon etgan. Paklitaksel mahalliy tarqalgan angiosarkomalarni, xususan, Styuart-Trivis sindromi bilan bog'liq holatlarni davolashda yuqori samaradorlik ko'rsatgan.

Liposarkoma, leyomiosarkoma, sinovial sarkoma va ekstraossal Yuing sarkomasi davolashda ikkinchi yoki undan keyingi liniya sifatida trabektedin qo'llanishi mumkin. Ikkinchi va undan keyingi liniyalar uchun, liposarkoma va GIST dan tashqari, aksariyat gistologik turlar uchun pazopanib qo'llanilishi mumkin. Liposarkoma uchun eribulin qo'llash mumkin. Gemsitabin leyomiosarkoma davolashda yagona xavfli o'smaga qarshi agent sifatida samarali ekanini ko'rsatgan. Dakarbazin ikkinchi liniya kimyo terapiyasi sifatida ayrim xavfli o'smalarga, ehtimol, ayniqsa leyomiosarkomada samarali bo'lishi mumkin. Pazopanib ikkinchi va undan keyingi liniyalarda aksariyat gistologik turlar uchun qo'llanadi, ammo kimyo terapiyasiga rezistent gistotiplar (alveolyar sarkoma, yorug' hujayrali sarkoma, solitar fibroz o'sma / gemangioendotelioma) uchun birlamchi liniya sifatida qo'llash tavsiya etiladi.

Kombinasiyalangan davolash bosqichini yakunlagan bemorlarda dinamik kuzatuv birinchi 2 yil davomida har 3 oyda bir marta, so'ng 5 yilgacha har 6 oyda bir marta o'tkaziladi.

Sarkomalarni kimyo terapiyasi rejimlari, monoterapiya:

- Doksorubisin 30 mg/m², v/i, 1-kundan 3-kungacha;
- Doksorubisin 60–75 mg/m², v/i, har 3 haftada bir marta;
- Ifosfamid 1,6–2,5 g/m²/sut, 5 kun davomida, uroprotektor Mesna bilan (ifosfamid dozasi 20% + 100% hajmida bir vaqtning o'zida);
- Gemsitabin 1200 mg/m², ≥120 minut davomida, 1- va 8-kunlarda, har 21 kunda bir marta, belgilangan infuziya tezligida (faqat bachadon leyomiosarkomasi uchun, agar GemTax rejimi ishlatilmasa);
- Trabektedin 1,5 mg/m², v/i, 24 soatlik infuziya ko'rinishida, har 21 kunda bir marta, ikkinchi liniya sifatida liposarkoma, leyomiosarkoma, sinovial sarkoma va Yuing sarkomasining ekstraossal shakllarini davolashda;

- Pazopanib 800 mg per os har kuni, ikkinchi liniya sifatida yumshoq to‘qima sarkomalarni (SMT) liposarkoma va GIST dan tashqari davolashda, samaradorlikni baholash qabul boshlanganidan 2 oy o‘tib amalga oshiriladi.

Poliximioterapiya:

- **AI:**

- doksorubisin 75 mg/m², 72-soatlik infuziya ko‘rinishida;
- ifosfamid 2,5 gr/m², v/i 3 soatlik infuziya ko‘rinishida, v1-chi–4-chi kunlar;
- mesna 500mg/m², 1-chi kun ifosfamid bilan birgalikda, so‘ngra 1500 mg/m² 24-soatlik infuziya ko‘rinishida 4 kun davomida;
- filgrastim t/o 5-chidan–15-chi kungacha yoki neyetrofillar darajasi tiklangunga qadar. Interval 3 hafta.

- **MAID:**

- mesna OD 8000 mg/m² 96-soatlik infuziya shaklida (2000mg/m²/sutka, 4 kun);
- doksorubisin 60mg/m² 72-soatlik infuziya shaklida v/i;
- ifosfamid 6000mg/m² 72-soatlik infuziya shaklida va 2000 mg/m² v/i 4-soatlik infuziya shaklida 1-chi-3-chi kunlar;
- dakarbazin 900 mg/m² 72-soatlik infuziya shaklida, doksorubisin bilan birga eritilgan;

Interval 3–4 hafta.

- **ADIC:**

- doksorubisin 90mg/m² 96-soatlik infuziya shaklida v/i;
- dakarbazin 900mg/m² 96-soatlik infuziya shaklida, doksorubisin bilan birga eritilgan.

Interval 3–4 hafta.

Rabdomiosarkomada kimyo terapiya rejimlari:

- **VAI:**

- vinkristin OD2 mg 1-chi kun;
- doksorubisin 75 mg/m² 72-soatlik infuziya shaklida;
- ifosfamid 2,5 gr/m² v/i 3 soatlik infuziya ko‘rinishida 1-chi-4-chi kunlar;
- mesna 500 mg/m² 1-chi kun ifosfamid bilan birgalikda, so‘ngra –1500mg/m² 24-soatlik infuziya ko‘rinishida 4 kun davomida;

— filgrastim t/o 5-chi-15-chi kunlar yoki neyetrofillar darajasi tiklangunga qadar. Interval – 3 hafta.

• **VAC:**

— vinkristin 2mg/m², 1-chi va 8-chi kunlar v/i, interval – 5 hafta;

— daktinomisin* 0,5mg/m², 1-chi, 2-chi, 3-chi, 4-chi,5-chi kunlar (har 3 oyda takrorlanadi, 5 kursgacha);

— siklofosfamid 300 mg/m², har kuni 7-kun davomida har 6 hafta.

• **VAdriaC:**

— vinkristin 1,5mg/m², 1-chi,8-chi,15-chi kunlar dastlabki 2 kurs davomida, keyinchalik faqat 1-chi kun;

— doksorubisin 60 mg/m², 48-soatlik infuziya ko‘rinishida;

— siklofosfamid 600 mg/m², 2 kun davomida. Interval – 3 hafta.

keyinchalik:

— ifosfamid 1800 m/m² + mesna 5 kun davomida;

— etopozid 100mg/m² v 1-chi– 5-chi kunlar. Interval– 3 hafta.

• **Target preparatlar:**

— imatinib kuniga 400mg dan ichishga doimiy, aggressivo fibromatozni davolash uchun.

Yuqori darajada mutasion yuklamali sarkomalar (TMB-H (≥10 mutations/megabase) Tumors) – immunoterapiya:

— Pembrolizumab 200 mg har 3 hafta yoki 400 mg har 6 hafta – davolash davomiyligini multidissiplinar guruh belgilaydi.

— Nivolumab + ipilimumab*: nivolumab 240 mg v/i tomch. har 2 haftada, ipilimumab* 1 mg/kg v/i tomch. har 6 haftada (ipilimumab* yuborish 4 tadan oshmasin).*

*- O‘zbekiston Respublikasida sarkomalarni davolashda immunoterapiya uchun rasmiy tasdiqlangan ko‘rsatmalar mavjud emas.

8-jadval. Asosiy dori vositalari ro‘yxati (100% qo‘llanish ehtimoliga ega bo‘lganlar):

Dori guruhi	Dori vositasining HPN	Qo‘llash usuli	ID
O‘smaga qarshi antibiotiklar – antrasiklinlar	Doksorubisin	75 mg/m ² , v/i 1-4 kunlar	A
Alkillovchi agentlar–	Ifosfamid	2,5 gr/m ² , v/i 1-4	A

xloretilaminlar		kunlar	
Antimetabolitlar –sitidin analoglari.	Gemsitabin	90 mg/ m ² ,v/i 1 i 8 kunlar	A
O‘simlik kelib chiqishli alkaloidlar va byuoshqa tabiiy kelib chiqishli preparatlar, mikronaychali ingibitorlar	Trabektidin	1,5 mg/ m ² ,v/i 3 haftada 1 marta	A
Akrolein antidoti	Mesna	100-120% ifosfamid dozasiga, v/i	A
Alkillovchi agentlar – triazinlar	Dakarbazin	750 mg/m ² summar v/i, uzluksiz infuziya 72 ch	A
Alkillovchi agentlar – xloretilaminlar	Siklofosfamid	300 mg/ m ² , v/i 1 kun	A
Topoizomeraza 11 ingibitorlari	Etopozid	100 mg/m ² , v/i 1-3 kunlar	A
Barvink alkaloidi	Vinkristin	1,5 mg/m ² ,v/i 1 kun	B
Somatostatin analogi	Oktreotid	0,1 mg t/o, sutkada 3 marta, 2 hafta	B
Immunodepressant, proliferativ signal o‘tkazish ingibitori	Everolimus	10mg ichishga har kuni progressiyalanishgacha	A
Antimetabolit	Ftorurasil	400 mg/ m ² v/i; 2400 mg/m ² v/i	A
Alkillovchi birikma	Temozolomid	150 mg/ m ² ichishga	A
Alkillovchi agentlar – platinaning kompleks birikmalari	Karboplatin	AUC 5 v/i 1 kun	B
	Sisplatin	75 mg/ m ² v/i 1 kun	B
O‘shish omillari va ularning reseptorlariga monoklonal antitanalar	Bevasizumab	5-7,5 mg/kg v/i 3 haftada 1 marta	A
Mikronaycha ingibitorlari – taksanlar	Paklitaksel	80 mg/ m ² v/i 1 kun	A

Pirimidin ingibitorlari – ftorpirimidinlar	Kapesitabin	2500 mg/ m2 ichishga 1-14 kunlar	A
Proteinkinaza ingibitori	Pazopanib	800 mg kuniga 1 marta, ichishga	A
Yuklash (havola)	https://diseases.medelement.com/disease/%D0%B2%D0%BD%D0%B5%D0%BE%D1%80%D0%B3%D0%B0%D0%BD%D0%BD%D1%8B%D0%B5-%D0%B7%D0%B0%D0%B1%D1%80%D1%8E%D1%88%D0%B8%D0%BD%D0%BD%D1%8B%D0%B5-%D0%BE%D0%BF%D1%83%D1%85%D0%BE%D0%BB%D0%B8-%D0%BA%D0%BF-%D1%80%D0%BA-2023/17902		

9-jadval. QFo‘shimcha dori vositalari ro‘yxati (100% dan kam qo‘llanish ehtimoliga ega bo‘lganlar):

Dori guruhi	Dori vositasining HPN	Qo‘llash usuli	ID
BCR-ABL tirozinkinaza ingibitori	Imatinib	400 mg ichishga har kuni	A
O‘smaga qarshi vosita, proteintirozinkinaza ingibitori	Sunitinib	37,5 mg ichishga har kuni	A
O‘smaga qarshi vosita, hujayra ichi tirozinkinazaning selektiv va qaytar ingibitori	Lapatinib	1250 mg ichishga har kuni	A
O‘smaga qarshi vosita, proteintirozinkinaza ingibitori	Dazatinib	100 mg ichishga	A
Monoklonal antitana	Denosumab	120 mg har 4 haftada t/o	B
Immunoonkologik preparat, PD-1 ingibitori, gumanizasiyalangan monoklonal antitana	Pembrolizumab	200mg 3 haftada 1ki 400mg har 6 haftada	A
Immunoonkologik preparat, gumanizasiyalangan monoklonal antitana	Nivolyumab*	nivolumab 240 mg v/i har 2 haftada	A
Immunoonkologik preparat,	Ipilimumab*	1 mg/kg v/i har 6 haftada (yuborilishi 4	B

gumanizasiyalangan monoklonal antitana		tadan ko‘p bo‘lmasin)	
Galixondrin guruhi o‘smaga qarshi vositasi, mikrotrubochek notaksan qator mikronaychalar dinamikasi ingibitori	Eribulin	1.4 mg/m ² 21 kunlik siklning 1-chi va 8-chi kunlari	A
O‘smaga qarshi antibiotiklar aktinomisinlar	Daktinomisin*	0,5 mg/ m ² , v/i 1-5 kunlar	B
KSF	Epoetinalfa	40 ming MEhaftada 3 marta, ko‘rsatmalarga ko‘ra 1 oy davomida, teri ostiga, vena ichiga	C
KSF	Darbopoetin alfa	2,25mkg/m ² 7 kunda 1 marta, har 9 haftada, teri ostiga	C
KSF	Filgrastim	30 mln ED, har kuni ko‘rsatmalarga ko‘ra, teri ostiga	C
Yuklash (havola)	https://diseases.medelement.com/disease/%D0%B2%D0%BD%D0%B5%D0%BE%D1%80%D0%B3%D0%B0%D0%BD%D0%BD%D1%8B%D0%B5-%D0%B7%D0%B0%D0%B1%D1%80%D1%8E%D1%88%D0%B8%D0%BD%D0%BD%D1%8B%D0%B5-%D0%BE%D0%BF%D1%83%D1%85%D0%BE%D0%BB%D0%B8-%D0%BA%D0%BF-%D1%80%D0%BA-2023/17902		

6.4. Jarrohlik davosi

A'zodan tashqari qorin parda orti o‘smalarida asosiy davolash usuli jarrohlik hisoblanadi.

Maqsad: radikal yoki sitoreduktiv o‘smanni olib tashlash.

Jarrohlik aralashuvi nomi: to‘liq yoki subtotal o‘smanni olib tashlash.

Amalga oshirish ko‘rsatmalari: a'zodan tashqari qorin parda orti hosilasining mavjudligi.

Qarshi ko‘rsatmalar: og‘ir hamroh patologiyaning dekompensasiya bosqichida bo‘lishi.

Bajarish usuli: to‘liq.

A'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarini jarrohlik usulida davolash

prinsiplari.

A'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarining klinik jarayonining o'ziga xosligi tez-tez mahalliy residiv qilish va uzoq metastazlarning kam uchrashidir. Jarrohlik davolash maqsadi – o'smani en bloc usulida to'liq olib tashlash, shuningdek, aniq o'sma jarayoniga jalb qilingan a'zolarni rezeksiya qilish [28]. O'smani kapsula ichida olib tashlashga intilish lozim. Eng ko'p olib tashlanadigan a'zolar – yo'g'on ichak va buyrakdir [25]. Vizualizasiya usullari orqali qo'shni a'zolarning o'sma jarayoniga qay darajada jalb etilganini aniq baholash har doim ham mumkin emas, shu sababli, kombinasiyalangan operatsiyalar xavfi va foydasi sinchiklab baholanishi kerak [26]. Oldindan (upfront) qo'shni a'zolarni rezeksiya qilish nazariy jihatdan radikallikni oshirishi mumkin, lekin bu operatsiyani murakkablashtiradi va asoratlar ehtimolini oshiradi. Ayniqsa, yirik qon tomirlar va nervlar, oshqozon osti bezi bosh qismi, buyrak va siydik yo'llari, to'g'ri ichakni rezeksiya qilish maqsadga muvofiqligini sinchiklab baholash juda muhim. A'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarining norezektabellik belgisi odatda tutqich qon tomirlarining (arteriya va/yoki vena) muftasimon o'rab olinishi bilan namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, o'smaning qon tomiriga yaqin joylashgani har doim ham invaziya borligini bildirmaydi. Chanoq sohasida joylashgan o'smalarni olib tashlash murakkab jarayon bo'lib, turli ixtisoslikdagi jarrohlarning ishtirokini talab qiladi.

A'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarining residivini jarrohlik yo'li bilan davolash onkojarrohlikda murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Spayka jarayoni haqiqiy tarqalish darajasini baholashni qiyinlashtiradi. Lokoregionar residivni jarrohlik yo'li bilan olib tashlashda asosiy o'smani rezeksiya qilish prinsiplariga amal qilish lozim. Multifokal residiv (ayniqsa, boshqa anatomik sohalarga tarqalishi bilan) kasallikning tez progressiyasidan dalolat beradi. Bunday hollarda multivisseral rezeksiyalar operatsiyaning radikalligi oshishini ta'minlamaydi [24, 25, 26, 28].

- Buyrak va jigar venalari kabi visseral shoxlar va pastki kovak vena orqali adekvat qon oqimini ta'minlash maqsadida, pastki kovak venaning leyomiosarkomasi bo'lgan bemorlarda o'smani sog'lom to'qimalar doirasida olib tashlash hajmida jarrohlik o'tkazish tavsiya etiladi. Zarur hollarda qon tomir plastikasi elementlarini, shu jumladan, tomirni protezlashni qo'llash tavsiya etiladi.

Tavsiyalar ishonchlilik darajasi – C (dalillar ishonchlilik darajasi – 4).

6.5. Keyingi olib borish:

4.1 Kuzatuv:

Rejim nablyudeniya:

- Birinchi yil – har 3 oyda bir marta;
- Ikkinchi yil – har 6 oyda bir marta;

- Keyingi yillarda, umrbod – har yili bir marta.

Tekshiruvlar ko‘lami:

- fizikal;
- laborator – QUT, QBT, PUT, koagulogramma;

Asosiy:

KT s kontrastirovaniem/ organov bryushnoy polosti, zabryushinnogo prostranstva;

MRT organov malogo taza (pri lokalizatsii/rasprostraneni opuxoli v malom taz);

KT OGG

Qo‘shimcha:

PET-KT/MRT (ko‘rsatmalarga ko‘ra, 6 oyda 1 marta).

Qorin bo‘shlig‘i a‘zolari va qorin parda orti UTTsi

Boshqa tekshiruv usullari (FEGDS, FKS va boshq.) va mutahassislar ko‘riklari (ginekolog, urolog va boshq.) ko‘rsatmalar asosida.

7. Davo samaradorligi indikatorlari

- Qoniqarli holat – asoratlar yo‘qligi va operatsiyadan keyingi yaraning tuzalishi sharti bilan.
- Klinik va/yoki vizualizatsiya usullari orqali aniqlangan holatda kasallik progressiyasi belgilari yo‘qligi, shuningdek, bemor hayot sifati yaxshilanishi.
- **"O‘smaning javobi"** – davolashdan keyin o‘smaning regressiyasi.
 - **To‘liq samara** – barcha zararlanish o‘choqlarining kamida 4 hafta davomida yo‘qolishi.
 - **Qisman samara** – barcha yoki ayrim o‘smalar hajmining 50% yoki undan ko‘proq kamayishi, boshqa o‘choqlarda progressiya bo‘lmasligi.
 - **Stabilizatsiya** – o‘smaning hajmi 50% dan kam kamayishi yoki 25% dan oshmasligi, yangi o‘choqlar paydo bo‘lmasligi.
 - **Progressiya** – bir yoki bir nechta o‘smalar hajmining 25% dan ortiq o‘sishi yoki yangi o‘choqlar paydo bo‘lishi (ishonchlilik darajasi – A).
- Uch yillik va besh yillik residivsiz yashovchanlik.
- **Hayot sifati** – bemorning jismoniy holatidan tashqari, uning psixologik, emosional va ijtimoiy faoliyatini ham o‘z ichiga oladi.

**«A'ZODAN TASHQARI QORIN PARDA ORTI
O'SMALARI» NOZOLOGIYASI BO'YICHA
TIBBIY ARALASHUVLAR MILLIY KLINIK
PROTOKOLLARI**

TOSHKENT – 2025

- - XKT kod (lar) i:

KXT-10:	
Kodi	Nomlanishi
C48	– A'zodan tashqari qorin parda orti o'smalari
C48.0	– Qorin parda ortistranstva
C48.1	– Qorin pardaning aniqlashtirilgan qismlari
C48.2	– Qorin pardaning aniqlashtirilmagan qismlari
C48.8	– Yuqorida keltirilgan bitta yoki bir nechta lokalizatsichdan tashqari chiqqan qorin parda orti soha va qorin pardaning zararlanishi
Yuklab olish (XKT-10 dan havola): https://mkb-10.com/index.php?pid=1262	
KXT-11:	
Kod i	Nomlanishi
2C50- 2C5Z	Xavfli o'smalar: qorin parda orti, qorin parda yoki charvida
2C50	Qorin parda orti va qorin pardadagi xavfli o'smalar
2C50.0	Qorin parda ortidagi kistoz, musinoz yoki seroz karsinoma
2C50.Y	Qorin parda orti va qorin pardadagi boshqa aniqlangan xavfli o'smalar
2C50.Z	Aniqlanmagan qorin parda orti va qorin pardadagi xavfli o'smalar
2C51	Qorin pardadagi xavfli o'smalar
2C51.0	Qorin parda adenokarsinomalari
2C51.1	Qorin pardadagi kistoz, musinoz yoki seroz karsinoma
2C51.Y	Qorin pardadagi boshqa aniqlangan xavfli o'smalar
2C51.Z	Aniqlanmagan qorin pardadagi xavfli o'smalar
2C52	Charvidagi xavfli o'smalar
2C52.0	Charvidagi kistoz, musinoz yoki seroz karsinoma
2B5F.10	Charvi miosarkomasi
2C52.Y	Charvidagi boshqa aniqlangan xavfli o'smalar
2C52.Z	Aniqlanmagan charvidagi xavfli o'smalar
2C53	Bir yoki bir nechta lokalizasiya chegarasidan tashqari tarqalgan qorin parda orti, qorin parda yoki charvidagi xavfli o'smalar
2C53.0	Bir yoki bir nechta lokalizasiya chegarasidan tashqari tarqalgan qorin parda orti, qorin parda yoki charvi adenokarsinomasi

2C53.Y	Bir yoki bir nechta lokalizasiya chegarasidan tashqari tarqalgan qorin parda orti, qorin parda yoki charvidagi boshqa aniqlangan xavfli o'sma
2C53.Z	Bir yoki bir nechta lokalizasiya chegarasidan tashqari tarqalgan qorin parda orti, qorin parda yoki charvidagi aniqlanmagan xavfli o'sma
2C5Y	Qorin parda orti, qorin parda yoki charvidagi boshqa aniqlangan xavfli o'smalar
2C5Z	Aniqlanmagan qorin parda orti, qorin parda yoki charvidagi xavfli o'smalar
2F73	Qorin parda ortidagi noma'lum tabiatli o'smalar
2F74	Qorin pardadagi noma'lum tabiatli o'smalar
2D90	Qorin parda ortidagi xavfli o'smaning metastazi
2D91	Qorin pardaga xavfli o'smaning metastazi, xavfli o'smaning boshqa joylarga metastazi
2B59.1	Qorin parda yoki qorin parda orti liposarkomasi
2B58.0	Qorin parda yoki qorin parda orti leyomiosarkomasi
2B5F.1	Boshqa rubrikalarga kiritilmagan qorin parda va qorin parda orti sarkomasi
2B5F.10	Charvi miosarkomasi
2B5F.1Y	Boshqa aniqlangan, boshqa rubrikalarga kiritilmagan qorin parda va qorin parda orti sarkomasi
2B5F.1Z	Aniqlanmagan, boshqa rubrikalarga kiritilmagan qorin parda va qorin parda orti sarkomasi
Yuklab olish (XKT-11 dan havola): https://icd.who.int/browse/2025-01/mms/ru#1630407678	

1. Asosiy qism.

Kirish (foydalanilgan manba'ga havola: <https://www.esmo.org/guidelines>):

A'zodan tashqari qorin parda orti o'smalari – mezodermal, neyrogen va embriogen kelib chiqishiga ega bo'lgan, qorin parda orti sohasida joylashgan xavfli va xavfsiz o'smalar guruhidir (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/34303806/>).

A'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalari (AQQPOS) – turli xil biriktiruvchi to'qimalardan rivojlanuvchi va qorin parda orti sohasida joylashuvchi kam uchraydigan xavfli o'smalar turi. Eng keng tarqalgan shakllar qatoriga liposarkoma, leyomiosarkoma va shvannoma kiradi. ([https://www.annalsofoncology.org/article/S0923-7534\(19\)31692-8/fulltext](https://www.annalsofoncology.org/article/S0923-7534(19)31692-8/fulltext)).

Hozirgi kunga qadar a'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarining etiologik omillari aniqlanmagan. Liposarkomalar – har xil darajadagi differensiyasiyaga ega bo'lgan o'sma lipositlari/lipoblastlaridan tashkil topgan xavfli mezenximal o'smalardir. Ularning gistogenetik manbai aksariyat hollarda paranefral yog' to'qimasi, yo'g'on yoki ingichka ichak tutqichidagi yog' to'qimasi hisoblanadi. Leyomiosarkomalar – liposarkomalardan keyin a'zodan tashqari qorin parda orti o'smalari orasida ikkinchi o'rinda turadi. (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/10993610/>). Ular silliq mushak hujayralaridan shakllanadigan xavfli mezenximal o'smalardir. A'zodan tashqari qorin parda orti lokalizatsiyasiga ko'ra ular ikki gistogenetik manbaga ega: ingichka ichak tutqichining miositlari va pastki kovak vena hamda uning visseral shoxlarining mushak hujayralari. Shuning uchun a'zodan tashqari qorin parda orti leyomiosarkomalari va pastki kovak vena hamda buyrak venalarining leyomiosarkomalari ajratiladi. Periferik nerv qobig'i hujayralaridan kelib chiqqan xavfli o'smalar (havfli shvannomalar) – a'zodan tashqari qorin parda orti xavfli o'smalarining uchinchi eng keng tarqalgan guruhidir. Ular neyroektodermal kelib chiqishga ega bo'lib, shvannov hujayralari va perinevral fibroblastlardan (neyrofibrosarkomalar) shakllanadi. Boshqa gistologik turlar ancha kam uchraydi. (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/29846498/>).

RSNPMSOiRning 2023 yildagi statistik ma'lumotlariga ko'ra, a'zodan tashqari qorin parda orti o'smalari bilan kasallanish darajasi 100 ming aholiga 0,4 holatni tashkil etadi va so'nggi 10 yil davomida barqaror qolmoqda. Bu respublikada ilk bor aniqlangan barcha xavfli yangi hosilalarning 5,2% ni tashkil etadi. 2023 yilda jami 134 nafar bemorda a'zodan tashqari qorin parda orti o'smalari birinchi marta aniqlangan. Ulardan 5,2% holat profilaktik ko'riklar paytida faol aniqlangan. Morfologik tasdiqlangan holatlar ulushi 92,5% ni tashkil etadi. Birinchi bosqichda 1,5%, ikkinchi bosqichda 44,8%, uchinchi bosqichda 38,8%, to'rtinchi bosqichda 10,4% bemorda aniqlangan. 4,5% holatda kasallik bosqichini aniqlash imkoni bo'lmagan. 2025 yil boshiga kelib 504 nafar bemor dispanser nazoratida bo'lgan, kasallik tarqalish darajasi 1,4 holat/100 ming aholi ni tashkil etgan. Respublika bo'yicha 5 yillik tirik qolish darajasi 27,2%, bir yillik letallik 24,7% ni tashkil etadi. 2023 yilda a'zodan tashqari qorin parda orti o'smalari sababli 79 bemor vafot etgan, bu esa 100 ming aholiga 0,2 holat ni tashkil etadi.

2. Mazkur nozologiyada tanlangan tibbiy muolaja va/yoki jarroxlik amaliyotining qo'llanilishi tartibi.

1) Muolaja yoki aralashuvning maqsadi:

- o'sma o'sishini stabillashtirish va og'ir hamroh simptomlarni bartaraf etish uchun o'sma jarayonining to'liq yoki qisman regressiyasiga erishish va palliativ davolanish maqsadida jarrohlik usuli, kimyoterapiya (target, immunoterapiya) va/yoki nur terapiyasi o'kaziladi.

2) Muolaja yoki aralashuvga qarshi ko'rsatmalar:

- bemorning ogʻir holati – ECOG III–IV;
- faol bosqichdagi tuberkulez;
- dekompensasiya bosqichidagi hamroh kasallik;
- oʻtkir kechiktirib boʻlmaydigan gʻolalar (miokard infarkti, insult);
- septik holatlar;
- qon ketish xavfi bilan, parchalanish bosqichidagi oʻsmalar (nur terapiya uchun);
- psixorgan kasalliklar (shizofreniya, kuchli tutqanoq sindromi bilan epilepsiya);
- Bemorning Karnovskiy shkalasi boʻyicha 60%dan kam boʻlgan ogʻir holati.
- Dekompensasiya bosqichidagi hamroh kasalliklar.

3) Muolaja yoki aralashuvga koʻrsatmalar;

- jarrohlik davolash yoki biopsiyadan keyin tashxisni majburiy morfologik tekshirish bilan har qanday bosqichdagi aʼzodan tashqari qorin parda orti oʻsmalarining mavjudligi;
- jarrohlik davolash yoki ochiq biopsiyadan soʻng tashxisni morfologik tasdiqlash bilan ikkilamchi (metastatik yoki birlamchi aniqlangan oʻchoqsiz) oʻsmaning mavjudligi yoki metastazning morfologik tasdigʻining yoʻqligi, ammo aʼzodan tashqari qorin parda orti oʻsmalarining asosiy oʻchogʻining gistologik tekshiruvi mavjudligi.

Kimyo va/yoki nur terapiya quyidagi maqsaddi oʻtkaziladi:

- Oʻsma hujayralari yoʻq qilish;
- Oʻsma oʻlchamlarini kichraytirish, uni oʻsishdan toʻxtatish;
- jiggar saratoni residivini bartaraf etish;
- Davolashning asosiy usuli sifatida u butun tanaga taʼsir qiladigan tizimli xavfli oʻsmalar, shu jumladan, aʼzodan tashqari qorin parda orti oʻsmalari uchun koʻrsatma hisoblanadi. Mutaxassislar preparatning dozasini diqqat bilan tanlaydilar: agar u juda kichik boʻlsa, davolanish samaradorligi kamayadi, agar u yuqori boʻlsa, nojoʻya taʼsirlar xavfi ortadi.

Jarrohlik davolash tamoyillari

Aʼzodan tashqari qorin parda orti oʻsmalarida asosiy davolash usuli jarrohlik hisoblanadi.

Maqsad: radikal yoki sitoreduktiv oʻsmani olib tashlash.

Jarrohlik aralashuvi nomi: toʻliq yoki subtotal oʻsmani olib tashlash.

Amalga oshirish ko'rsatmalari: a'zodan tashqari qorin parda orti hosilasining mavjudligi.

Qarshi ko'rsatmalar: og'ir hamroh patologiyaning dekompensasiya bosqichida bo'lishi.

Bajarish usuli: to'liq.

A'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarini jarrohlik usulida davolash prinsiplari.

A'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarining klinik jarayonining o'ziga xosligi tez-tez mahalliy residiv qilish va uzoq metastazlarning kam uchrashidir. Jarrohlik davolash maqsadi – o'smani en bloc usulida to'liq olib tashlash, shuningdek, aniq o'sma jarayoniga jalb qilingan a'zolari rezeksiya qilish [28]. O'smani kapsula ichida olib tashlashga intilish lozim. Eng ko'p olib tashlanadigan a'zolar – yo'g'on ichak va buyrakdir [25]. Vizualizasiya usullari orqali qo'shni a'zolarining o'sma jarayoniga qay darajada jalb etilganini aniq baholash har doim ham mumkin emas, shu sababli, kombinatsiyalangan operatsiyalar xavfi va foydasi sinchiklab baholanishi kerak [26]. Oldindan (upfront) qo'shni a'zolari rezeksiya qilish nazariy jihatdan radikallikni oshirishi mumkin, lekin bu operatsiyani murakkablashtiradi va asoratlarni ehtimolini oshiradi. Ayniqsa, yirik qon tomirlar va nervlar, oshqozon osti bezi bosh qismi, buyrak va siydik yo'llari, to'g'ri ichakni rezeksiya qilish maqsadga muvofiqligini sinchiklab baholash juda muhim. A'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarining norezektabellik belgisi odatda tutqich qon tomirlarining (arteriya va/yoki vena) muftasimon o'rab olinishi bilan namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, o'smaning qon tomiriga yaqin joylashgani har doim ham invaziya borligini bildirmaydi. Chanoq sohasida joylashgan o'smalarni olib tashlash murakkab jarayon bo'lib, turli ixtisoslikdagi jarrohlarning ishtirokini talab qiladi.

A'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarining residivini jarrohlik yo'li bilan davolash onkojarrohlikda murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Spayka jarayoni haqiqiy tarqalish darajasini baholashni qiyinlashtiradi. Lokoregionar residivni jarrohlik yo'li bilan olib tashlashda asosiy o'smani rezeksiya qilish prinsiplariga amal qilish lozim. Multifokal residiv (ayniqsa, boshqa anatomik sohalarga tarqalishi bilan) kasallikning tez progressiyasidan dalolat beradi. Bunday hollarda multivisseral rezeksiyalar operatsiyaning radikalligi oshishini ta'minlamaydi [24, 25, 26, 28].

- Buyrak va jigar venalari kabi visseral shoxlar va pastki kovak vena orqali adekvat qon oqimini ta'minlash maqsadida, pastki kovak venaning leyomiosarkomasi bo'lgan bemorlarda o'smani sog'lom to'qimalar doirasida olib tashlash hajmida jarrohlik o'tkazish tavsiya etiladi. Zarur hollarda qon tomir plastikasi elementlarini, shu jumladan, tomirni protezlashni qo'llash tavsiya etiladi.

Tavsiyalar ishonchlilik darajasi – C (dalillar ishonchlilik darajasi – 4).

Nur terapiya:

Operasiyadan keyingi nur terapiyasi joylashgan o'sma tarqalish darajasi St Ib – St IV ga mos kelganda tavsiya etiladi.

Rezidual o'sma hududida operasiyadan keyingi nur terapiyasi SO'D 60–70 Gr, BMO'D 2 Gr (R1, R2 holatida) miqdorida o'tkaziladi.

Agar o'smaning rezektabelligi shubhali yoki u nereseptabel bo'lsa, SO'D 40–50 Gr bilan klassik fraksiyalashtirish rejimida nur terapiyasi o'tkaziladi.

Nur terapiyasi konvensional (standart) yoki konfromal rejimda statik ko'p maydonli nurlantirish usulida BMO'D 2–2,5–3,0 Gr bilan, umumiy doza 40–60 Gr gacha, o'sma o'sib kirgan hududga yo'naltirilgan holda o'tkaziladi.

Nur terapiyasi jarayonida organizmni nur shikastlanishidan himoya qiluvchi preparatlar qo'llash mumkin.

Nurlantirish gamma-terapevtik apparatlar yoki chiziqli tezlatgichlar yordamida amalga oshiriladi.

A'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarida nur terapiyasi prinsiplari

Yuqori residiv chastotasi va nisbatan past uzoq metastazlar chastotasi qorin parda orti noorgan o'smalarini kompleks davolashda nur terapiyasini qo'llashni asoslaydi. A'zodan tashqari qorin parda orti sarkomalarini davolashda nur terapiyasining roli hali aniq belgilanmagan. Nur terapiyasi jarrohlik bilan birga operatsiya oldidan va keyingi davrda qo'llaniladi [29].

- Operatsiya oldidan nur terapiyasi quyidagi maqsadlar uchun operabel va shartli operabel ATQPOO' bo'lgan bemorlarga tavsiya etilishi mumkin:

- anaplaziyaga uchragan, yaxshi oksigenasiyalangan va nurga yuqori sezgir hujayralarning nobud bo'lishi va tirik qolgan hujayralarning biologik xususiyatlarini o'zgartirish orqali o'smaning xavflilik darajasini pasaytirish;

- subklinik o'sma o'choqlarini to'liq yo'q qilish;

- sma atrofidagi yallig'lanish va shishni kamaytirish, hajmini cheklash va yumshatish;

- o'smaning biologik faolligini pasaytirish, mahalliy residivlar, implantasion va uzoq metastazlar rivojlanish xavfini kamaytirish;

- jarrohlik aralashuvi uchun qulayroq sharoit yaratish, ya'ni, o'sma hajmini kichraytirish va ayrim hollarda uni nerezeptabel holatdan operabel holatga o'tkazish, shuningdek, a'zoni saqlab qolish imkoniyatini ta'minlash [29, 30];

- perifokal shishni kamaytirish;

- o'sma atrofida "yolg'on kapsula" shakllantirish va uni sog'lom to'qimalardan aniqroq ajratish.

Tavsiyalar ishonchlilik darajasi – A (dalillar ishonchlilik darajasi – 3).

Izohlar: *Operasiya oldidan nur terapiyasining afzalligi shundaki, u o'smaning hajmini kichraytirishi, uning rezektabelligini va jarrohlik aralashuvining radikalligi oshishini ta'minlashi mumkin. Shuningdek, GTV ni aniq belgilash imkoniyati yaratiladi, chunki o'sma tugunlari vizualizasiya qilinadi [31]. Nur terapiyasi natijasida o'sma kichrayishi jarrohlik davolash jarayonini engillashtirishi mumkin. O'smaning o'zi nurning maksimal dozasini oluvchi sohadan sog'lom to'qimalarni uzoqlashtirib, toksiklik darajasini kamaytirishi mumkin [29, 31]. Neoad'yuvant nur terapiyasi o'tkazilayotganda o'sma yaxshi oksigenasiyalangan bo'ladi, bu esa davolash samaradorligini oshiradi. Bu jarayon jarrohlik bosqichida o'sma hujayralarining qorin pardasi yoki qo'shni anatomik sohalarga tarqalish xavfini kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, operatsiyadan keyingi asoratlar tufayli uzoq muddatli davolash tanaffusining oldi olinadi.*

• Davolash rejasini tayyorlashda quyidagi nurlantiriladigan hajmlarni aniqlash tavsiya etiladi:

- GTV (gross tumor volume) – aniqlangan o'sma hajmi: asosiy o'sma o'chog'i;
- CTV (clinical tumor volume) – klinik o'sma tarqalish sohasi;
- GTV + 2–3 sm chegara (fassiylar, suyaklar va havo bundan mustasno);
- PTV (planned treatment volume) – qo'llashdagi xato ehtimolini hisobga olgan nurlantiriladigan hajm;
- CTV + 0,5–1,0 sm chegara.

3D CRT usulida nur terapiyasi o'tkazilganda old-orqa va qiya maydonlar ishlatiladi.

• Texnik imkoniyatlar mavjud bo'lsa, barcha bemorlarda IMRT usulida konfromal nur terapiyasi o'tkazish tavsiya etiladi. Tanafi xavfi yuqori bo'lgan a'zo – ingichka ichak. Razovaya ochagovaya doza (ROD) 1,8–2,0 Gr, summarnaya ochagovaya doza (SOD) 45,0–50,4 Gr.

• Agar o'sma qorin bo'shlig'ining yuqori qismlarida joylashgan bo'lsa, nafas olish harakatlari nazorati ostida davolash tavsiya etiladi.

Tavsiyalar ishonchlilik darajasi – A (dalillar ishonchlilik darajasi – 2).

• Operatsiyadan keyingi nur terapiyasi tirik qolgan o'sma hujayralarining sonini kamaytirish va residiv xavfini pasaytirish uchun tavsiya etiladi. Operatsiyadan keyingi nurlantiriladigan hajm operatsiyagacha bo'lgan holatga qaraganda kattaroq bo'ladi.

Tavsiyalar ishonchlilik darajasi – C (dalillar ishonchlilik darajasi – 4).

• Joylashgan yuqori xavfli residiv hududi yoki R1, R2 rezeksiya chegaralarini kliplash tavsiya etiladi. [36].

Tavsiyalar ishonchlilik darajasi – A (dalillar ishonchlilik darajasi – 2).

- CTV ni aniqlash uchun operatsiya oldidan olingan diagnostik tasvirlarni izodoz taqsimoti rejalashtirish dasturida birlashtirish tavsiya etiladi.

- Agar o'sma qolgan bo'lsa yoki R1, R2 rezeksiya qilingan bo'lsa, qo'shimcha «bust» etkazish maqsadga muvofiq: Mikroskopik tarqalish hududi uchun SO'D 16–18 Gr; Qolgan o'sma bo'lgan hududda SO'D 20–26 Gr [32, 33].

- Yuqori residiv xavfi mavjud bo'lgan hududga IMRT usulida SO'D 45,0–50,4 Gr dan integrasiyalangan «bust» qo'llash tavsiya etiladi, buning uchun 25 fraksiyada SO'D 57,5 Gr qo'llaniladi. [32, 33, 36].

Tavsiyalar ishonchlilik darajasi – B (dalillar ishonchlilik darajasi – 2).

- Kam xavfli ATQPOO' erta bosqichlarini davolashda operatsiyadan keyin 3D CRT yoki IMRT usulida regionar nur terapiyasi o'tkazish tavsiya etiladi. Lojadagi chegaralardan 2–3 sm masofa bilan, BMO'D 1,8–2,0 Gr, SO'D 45,0–50,4 Gr. Agar rezeksiya chegarasida o'sma belgilari aniqlansa, SO'D 65–70 Gr. [32, 36].

Tavsiyalar ishonchlilik darajasi – A (dalillar ishonchlilik darajasi – 2).

- Yuqori xavfli ATQPOO' erta bosqichlarini davolashda operatsiyadan keyin 3D CRT yoki IMRT usulida regionar nur terapiyasi o'tkazish tavsiya etiladi. O'sma o'rnidagi chegaralardan 5 sm masofa bilan, BMO'D 1,8–2,0 Gr, SO'D 45,0–50,4 Gr, keyinchalik lokal nur terapiyasi 60 Gr gacha. Agar rezeksiya chegarasida o'sma mavjud bo'lsa, SO'D 70 Gr. [35, 37].

4) muolaja va aralashuv o'tkazayotgan mutahassisga talablar:

Aholiga onkologik yordam ko'rsatadigan tibbiy muassasalarning abdominal onkologiya, kimyoterapevtik va radiologik bo'limlarida ishlaydigan xodimlar zarur hujjatlar bilan tasdiqlangan tegishli bilim va malakaga ega bo'lishi va A guruhi xodimlariga tegishli bo'lishi va operasion blokda ishlash, radioaktiv va ionlashtiruvchi manbalar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'lishi, radiasiya, shuningdek, abdominal onkologiya va/yoki kimyoterapiya va/yoki radiasiya xavfsizligi kurslarini o'tash muddati o'tmagan sertifikatlari bor bo'lishi kerak.

- «Onkologiya», «Abdominal onkologiya», «Kimyo terapiya», «nur terapiya» (radiasion onkologiya) mutahassisliklari bo'yicha sertifikati bo'lgan, ixtisosligi bo'yicha kamida 5 yillik staji bo'lgan, so'nggi 5 yil ichida kamida 216 soat davomida abdominal onkologiya va/yoki kimyo - va/yoki nur terapiyasining yuqori texnologiyali usullari bo'yicha malaka oshirirgan mutahassis;

- Nur terapiyasi uchun fizika bo'yicha oliy ma'lumotli va/yoki oliy texnik ma'lumotga ega, mutaxassislik bo'yicha kamida 3 yillik ish tajribasiga ega, chiziqli tezlatgichlar bilan ishlash bo'yicha kamida 2 yillik tajribaga ega bo'lgan mutaxassis.

5) Asosiy va qo'shimcha diagnostika tadbirlari ro'yxati:

Amaliyot yoki aralashuvga tayyorgarlik ko‘rishda majburiy diagnostika choralari ro‘yxati:

1. QUT leykoformula va trombositlar miqdorini hisoblash bilan;
2. Qon biokimyoviy tahlyoki (natriy, kaliy, kalsiy, glyukoza, mochevina, kreatinin, peshob kislotasi, umumiy oqsil, albumin, umumiy bilirubin, bevosita bilirubin, LDG, AST, ALT, SRB, ishqoriy fosfotaza);
3. AVO tizimi bo‘yicha qon tuguhini aniqlash;
4. Rezus-faktorni aniqlash;
5. Peshob umumiy tahlili;
6. Koagulogramma (AChTV, PV, MNO, PTI, fibrinogen);
7. IFA yoki IXL usulida virusli gepatit B va C markerlarini aniqlash
8. B va C virusli gepatitlari uchun PZR (sifatli)
9. IFA usulida OIV-infeksiyani aniqlash (HIVAg/anti-HIV);
10. Zahmga serologik reaksiyalar majmuasi;
11. Ko‘krak qafasi rentgen tekshiruvi (skopiya, grafiya);
12. Qorin bo‘shlig‘i va qorin parda orti kontrastli sohasi KTsi;
13. Kichik chanoq MRTsi (o‘smanning kichik chanoqqa jeoylashishi yoki tarqalishida);
14. Kompleks ultratovush diagnostikasi (jigar, o‘t pufagi, me‘da osti bezi, taloq, buyraklar, qorin parda orti soha va periferik limfa tugunlari);
15. Ko‘krak qafasi kompyuter tomografiyasi;
16. Fibroezofagogastroduodenoskopiya;
17. Punksion yoki insizion biopsiya;
18. Bioptatni sitologik tekshirish (hosilani, limfa tugunini) *;
19. Bioptatni gistologik tekshirish (hosilani, limfa tugunini) *
20. EKG;
21. ExoKG;

- Muolaja va aralashuvga tayyorlashda qo‘shimcha tekshirish usullari:

1. PZR usulida Ebshteyn-Barr virusi, 1-2 tip herpes, sitomegalovirus, toksoplazmoz;
2. B va C gepatit viruslariga PZR (miqdoriy);
3. SOVID-19 gi PZR;
4. Qonni kislota ishqoriy holati (KIH) va gazlarga aniqlash;

5. Bevosita va bilvosita Kumbs reaksiyasi;
6. Standart sitogeneti tekshirish;
7. Ferritin, folatlar, zardob temiri, Vitamin V12ni aniqlash;
8. ProBNP
9. Prokalsitonin
10. Antitrombin III, D-dimer
11. Fertil yoshidagi ayollarda – homiladorlikka test, XGChni aniqlash;
12. Periferik qon IFTsi;
13. Standart –sitogenetik tekshirish;
14. Bioptatni immunogistokimyoviy tekshirish (hosilani, limfa tugunini)*
15. O‘smalarni molekulyar-genetik tekshiruvi (biopsiya va amaliyotdan keyingi materiallarni, oynalarni, o‘smalarning erkin sirkulyasiyadagi DNKlari);
16. Kolonoskopiya;
17. Me‘da, 12 barmoq ichak va me‘da osti bezini rentgenoskopik tekshiruvi, kontrastlash bilan (ikki karra kontrastlash);
18. Bosh va bo‘yin kontrastli KTsi;
19. Bosh miya MRTsi;
20. Spirografiya;
21. Burun yondosh bo‘liqlari rentgenografiyasi;
22. Skelet suyaklarini skanirlash;
23. Tomirlar (vena va/yoki arteriyalar) UTDGsi;
24. Xolter – monitorlash bilan EKG
25. Butun tana PET/KTsi**;

* Agar avval o‘tkazilmagan bo‘lsa.

** Kasallikning boshlanishida va qayta bosqichlash paytida bajarish kerak.

6) Muolaja yoki aralashuvni o‘tkazishga qo‘yiladigan talablar:

Onkologik muassasaning jarrohlik (abdominal onkojarroh) bo‘limi faoliyatini tashkil etish qoidalari

Ushbu qoidalar onkologik shifoxonaning (onkologik markaz va uning filiallari), onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatadigan boshqa tibbiy

